



BAYROQ KIMDA QOLADI?

8-9-sahifa ►►

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiga boshlagan ● 2022-yil 18-noyabr, №46 (3005)

YANGI O'ZBEKİSTONDA EL AZİZ, INSON AZİZ

VATANPARVAR

www.mv-vatanparvar.uz

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVİY-MA'RİFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI



TINCHLIK VA OSOYISHTALIK KAFOLATI

4-5-sahifa ►►



18
noyabr

O'zbekiston
Respublikasi
Davlat bayrog'i
qabul qilingan
kun



MILLAT VA
G'URUR TIMSOLI

10-11

"JALOLIDDIN
MANGUBERDI"
KUBOKNI OLDI

18

YIGITLARIMIZ
QIT'A MIQYOSIDA
TENGSIZ!

22

SPORTCHIMIZ –
BRONZA MEDALI
SOHIBI

Bu yilgi tanloving
yakuniy bosqichi Zangiota
tumanida joylashgan
harbiy qismda o'tkazildi.
Unda bir-biridan zukko
va bilimdon 7 oila uchta
shart bo'yicha o'zaro kuch
sinashdi.

KITOBOXONLAR A'LOSI

12-sahifa ►►

@ vatanparvar-bt@umail.uz

● t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

● facebook.com/mudofaavazirligi

● instagram.com/mudofaavazirligi

● youtube.com/c/uzarmiya



Tahririyat
haqida
ma'lumot

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҚАРОРИ

КИБЕРСПОРТ ТУРЛАРИНИ ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КЕНГ ОММАЛАШТИРИШГА ОИД ҚЎШИМЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР ТЎГРИСИДА

Республикада киберспортни хавфсиз ривожлантириш ва оммалаштириш бўйича экотизим яратиш, мусобақалар ва турнирларни тизимли равишида ўтказиш орқали иқтидорли ёшларни аниқлаш, танлаш ва саралаш (селекция) ҳамда уларни профессионал киберспортга йўналтириш, ахборот технологиялари ва IT-индустрия учун салоҳиятни кадрларни тайёрлаш ва уларни соҳага жалб қилиш ишларини янада кенгайтириш мақсадида:

1. Республикада **киберспорт** расман алоҳида спорт тури сифатида **эътироф этилганлиги** маълумот учун қабул қилинсин.

2. Куйидагилар **киберспорт турларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари** этиб белгилансин:

киберспорт турлари бўйича профессионал спортчилар (**киберспортичилар**) ва **тренерлар, малакали ҳакамлар ва шарҳловчиликлар** ҳамда бошқа мутахассисларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш тизимини жорий қилиш;

киберспорт турлари бўйича республика ва ҳалқаро **чемпионатлар** ва **турнирлар** ташкил этиш, шунингдек, нуфузли ҳалқаро ва **минтақавий** мусобақаларда муносиб иштирок этиш;

киберспорт турлари бўйича **илмий** ва **ўқув-услубий қўлланмалар** ва **адабиётлар** ишлаб чиқиш ҳамда нашр этиш;

киберспорт инфратузилмасини янада ривожлантириш ва кенгайтириш, соҳага тўғридан-тўғри **инвестициялар** жалб қилишини рағбатлантириш;

киберспорт турларига нисбатан **ижобий жамоатчилик** фикрини шакллантириш, оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларда кенг тарбибот-ташвиқот ишларини олиб бориши.

3. Спортни ривожлантириш вазирлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларни ривожлантириш вазирлиги ҳамда **Ёшлар ишлари агентлиги** республикада киберспорт турларини ривожлантириш ва кенг оммалаштиришга **масъул ваколатли давлат органлари этиб белгилансин**.

Бунда уларнинг вазифалари куйидагича белгилансин:

Спортни ривожлантириш вазирлиги – киберспортни расмий спорт тури сифатида тарғиб қилиш, у бўйича маҳаллий ва ҳалқаро чемпионатлар, турнирлар ва бошқа мусобақаларни ташкил этиш, жаҳон киберспорт майдонида Ўзбекистоннинг мавқеини яхшилаш бўйича чораларни кўриш;

Ахборот технологиялари ва коммуникацияларни ривожлантириш вазирлиги – компютер ўйинлари саноати бўйича маҳаллий ва хорижий компанияларга зарур шарт-шароитлар яратиш, республика миқёсида киберспорт чемпионатлари, турнирлари ва бошқа мусобақаларни ташкил этишига кўмаклашиш;

Ёшлар ишлари агентлиги – ўқувчи-ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказиш мақсадида киберспорт турларига ёшларни, шу жумладан, жисмоний имконияти чекланган ва ногиронлиги бўлган ёшларни кенг жалб қилиш ва уларнинг ушбу йўналишдаги ютуқларини қўшимча рағбатлантириш, киберспорт бўйича ҳалқаро чемпионатлар, турнирлар ва бошқа мусобақаларда маҳаллий киберспортичилар иштирок этиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш.

4. Спортни ривожлантириш вазирлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларни ривожлантириш вазирлиги ҳамда **Ёшлар ишлари агентлигининг** 2023 йилдан бошлаб анъанавий тарзда **киберспорт турлари** бўйича:

хар йили **апрель** оида «**Uzbekistan Esports Championship**» республика чемпионатини;

хар йили **декабрь** оида «**Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси кубоги**» турнирини;

хар йили **июнь** оида «**Ёшлар кубоги**» турнирини ўтказиш тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин.

5. Белгилансинки:

а) «**Uzbekistan Esports Championship**» республика чемпионати, «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси кубоги» ва «Ёшлар кубоги» турнирлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 апрелдаги ПҚ-201-сон қарорида белгиланган талабларга мувофиқ уч босқичда ташкил этилади. Бунда туман (шахар) ва вилоят босқичлари онлайн тарзда ўтказилиди;

б) «**Uzbekistan Esports Championship**» республика чемпионати 2024 йил 1 январдан бошлаб, «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси кубоги» турнири эса 2023 йил 1 январдан бошлаб спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг **республика-календарь режасига киритилади**;

в) «**Uzbekistan Esports Championship**» республика чемпионати, «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси кубоги» ва «Ёшлар кубоги» турнирлари, шунингдек, киберспорт турлари бўйича бошқа чемпионатлар, турнирлар ва мусобақаларни ўтказиш бўйича **маҳсус портални** (кейинги ўйинларда – Портал) яратиш ва молиялаштириш ҳамда доимий техник кўллаб-қувватлаш **Дастурий маҳсулотлар ва ахборот технологиялари технologik парки дирекцияси** (кейинги ўйинларда – IT-парк) томонидан амалга оширилади. Бунда Портални яратиш учун маблағлар IT-паркка Ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш жамғармаси томонидан ажратилиди;

г) «**Uzbekistan Esports Championship**» республика чемпионатини ўтказиш билан боғлиқ барча ҳаражатлар **2023 йилда қўйидаги тартибда амалга оширилади**:

чемпионатнинг республика финал босқичини ўтказиш учун – Ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш жамғармаси томонидан IT-паркка бир марталик ажратиладиган **1,5 миллиард сўм** маблағлари хисобидан амалга оширилади;

чемпионатнинг туман (шахар) ва вилоят босқичларини ўтказиш учун – спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг худудий календарь режаси, Ёшлар ишлари агентлигининг бюджетдан ташкиари жамғармасидан тенг улушларда ажратиладиган жами **2 миллиард сўм** маблағлар ҳисобидан амалга оширилади;

д) 2024 йилдан бошлаб «**Uzbekistan Esports Championship**» республика чемпионатини **молиялаштириш** манбалари этиб куйидагилар хисобланади:

спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг республика календарь режасига мазкур мақсадлар учун Давлат бюджети ҳисобидан ажратилган маблағлар;

худудий «Ёшлар дафтари» жамғармалари маблағлари;

Қорақалпогистон Республикаси бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳри маҳаллий бюджетлари маблағлари;

жамғармалар, спорт федерация (ассоциация)лари, клублари, хорижий инвесторлар, жисмоний тарбия ва спорт жамиятлари маблағлари;

юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳомийлик хайриялари;

қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар.

6. Солик кодексининг 369-моддаси

1-бандига мувофиқ «**Uzbekistan Esports Championship**» республика чемпионати,

«Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси кубоги» ва «Ёшлар кубоги» турнирлари, шунингдек, киберспорт турлари бўйича чемпионатлар, турнирлар ва бошқа мусобақаларда голиб ҳамда совриндор бўлган киберспортчиларга бирйўла бериладиган **пул мукофотлари ва совғалар жисмоний шахслардан олинадиган даромад солигини ҳисоблашда жами даромад таркибиға киритилмаслиги** ва ўз навбатида, **солиқقا тортимаслиги** маълумот учун қабул қилинсан.

7. **Киберспорт турларини янада ривожлантириш ва кенг оммалаштириш бўйича идоралараро кенгаш** (кейинги ўйинларда – Идоралараро кенгаш) ташкил қилинсан ҳамда унинг таркиби 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

8. Куйидагилар Идоралараро кенгашнинг **асосий вазифалари** этиб белгилансин:

мамлакатимизда киберспорт турлари салоҳиятни ўрганиш, ушбу соҳада замонавий стандартларни жорий қилишни ташкил қилиш;

ёшлар ўртасида киберспорт турлари бўйича чемпионатлар, турнирлар ва бошқа мусобақаларни (шу жумладан, «**Uzbekistan Esports Championship**» республика чемпионати, «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси кубоги» ва «Ёшлар кубоги» турнирлари) ташкил этиши ва оммалаштириш;

киберспорт турлари бўйича чемпионатлар, турнирлар ва бошқа мусобақаларни ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш, шу жумладан, улар доирасида ўтказиладиган киберспорт турларини белгилаш;

киберспорт турлари бўйича чемпионатлар, турнирлар ва бошқа мусобақаларни ўтказиш тартиби тўғрисидаги сметасини тасдиқлаш ва молиялаштириш ҳажмларни белгилаш;

киберспорт турлари бўйича жисмоний тарма жаҳон ва Осиё чемпионатлари ҳамда бошқа ҳалқаро турнирларда иштирокини таъминлаш;

киберспорт турлари бўйича чемпионатлар, турнирлар ва бошқа мусобақаларда голиб ва совриндор бўлган жамоаларни рағбатлантириш чораларини белгилаш;

киберспортни янада ривожлантириш ва кенг оммалаштириш бўйича қўшимча шарт-шароитларни яратиш.

9. Куйидагилар назарда тутувчи **Киберспорт турларини янада ривожлантириш ва кенг оммалаштириш чора-тадбирлари дастури** 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин:

киберспорт лигасини ташкил қилиш ва унинг доирасида киберспорт клублари ўртасида тизимли равишида киберспорт лига мусобақаларни ўтказиш;

киберспортни янада ривожлантириш ва кенг оммалаштириш борасида **спорт федерация (ассоциация)лари фаолияти** кучайтириш;

киберспортни ривожлантириш соҳасида **давлат бошқарувини таомиллаштириш**;

киберспортчиларнинг **соғлиғига салбий таъсир** кўрсатадиган омилларни камайтириш;

киберспортда **«ping» муаммосини босқичма-босқич бартарафа қилиш**;

жаҳон бозорида рақобат қила оладиган **киберспорт ўйинларини ишлаб чиқиш ва тижоратлаштириш**;

киберспортни **истиқболлари** ҳақида **тарғибот-ташвиқот ишларини кучайтириш**;

киберспортни **истиқболлари** ҳақида **тарғибот-ташвиқот ишларини кучайтириш**;

киберспорт билан шуғулланаётган ёшларда **соғлом спорт маданияти**

ни **шакллантириш**, улар томонидан қонунга хилоф ва ғайриижтимой хатти-харакатлар содир этилишининг олдини олиш.

10. Спортни ривожлантириш вазирлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларни ривожлантириш вазирлиги ҳамда Ёшлар ишлари агентлигингининг:

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университетида 2023/2024 ўкув йилидан бошлаб **«Спорт фаолияти: киберспорт» бакалавриат** таълим йўналишини очиш ҳамда ушбу йўналиш бўйича ўқиш мuddатини **3 йил этиб белгилаш**;

«**Uzbekistan Esports Championship**» республика чемпионатида охирги бир йилда голиб (1-ўрин) бўлган киберспортчиларни 2023/2024 ўкув йилидан бошлаб Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университетининг «Спорт фаолияти: киберспорт» бакалавриат таълим йўналишига **касбий (ижодий) имтиҳонларни топширишдан озод қилиш ва уларга максимал балл бериш**;

киберспорт фаолиятини **ўзини ўзи банд қилган шахслар** шуғулланиши мумкин бўлган фаолият (ишлар, хизматлар) турлари рўйхатига киритиш;

Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институтида киберспорт турлари бўйича **тренерлар, шарҳловчиликлар, ҳакамлар ва бошқа мутахассисларни қайта тайёрлаш тўғрисидаги таклифларига розилик берилсин**.

11. Инновацион ривожланиш вазирлиги (И.Абдурахмонов) Спортни ривожлантириш вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, киберспорт бўйича самарали фаолият олиб бораётган спорт федерация (ассоциация)лари ва бошқа манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда **миллий киберспорт ўйинларини яратиш ва тарғиб қилиш** мақсадида **Жисмоний тарбия ва спорт илмий тадқиқотлар институтига 2023 йилда грант ажратсин**.

12. Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги (Н.Хус

мувофиқлаштириш бўйича ишчи гурухининг Тошкент шахри, Яшнобод туманида барпо этилаётган **Олимпия шаҳарчасида** киберспорт турлари бўйича чемпионатлар, турнирлар ва мусобақаларни ўтказиш учун замонавий киберzonани ташкил қилиш тўғрисидаги таклифи қабул қилинсин.

Бунда, киберзона, шу жумладан, қўйидагилардан иборат бўлиши белгилаб қўйилсин:

чемпионатлар, турнирлар ва мусобақалар ўтказиладиган маҳсус зал;

мобил киберспорт машгулотлари зали;

сервер ускуналари сақланадиган жой;

ўқув-машгулот маркази;

чемпионатлар, турнирлар ва мусобақаларни тўғридан-тўғри ёритиш, сценаристлар, режиссёrlар, таҳлилчилар ва шарҳловчиilar учун студия;

киберспорт маҳсулотлари ва товарларини реклама ҳамда реализация қилиш шоҳобчаси.

Белгилансинки, киберзона фаолиятини ташкил қилиш билан боғлиқ харажатлар **Олимпия шаҳарчаси объектларини лойиҳалаш, қурилиш-монтаж ва жиҳозлаш ишлари учун белгиланган манбалар ҳисобидан** амалга оширилади.

Олимпия шаҳарчаси объектларини лойиҳалаш, қурилиш-монтаж, жиҳозлаш ва молиялаштириш ишларини мувофиқлаштириш бўйича ишчи гурухи (А. Арипов) киберzonанинг **лоиҳа-смета ҳужжатлари белгиланган тартибда ишлаб чиқилиши** ҳамда давлат экспертизасидан ўтказилишини тъминласин, шунингдек, лойиҳа объектларни ўз вақтида ва сифати қурилиши устидан назорат ўрнатсан.

15. Спортивни ривожлантириш вазирлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги ҳамда Ёшлар ишлари агентлиги:

Инвестициялар ва ташки савдо вазирлиги билан биргаликда 2023-2024 йилларда замонавий киберспорт ареналарини ташкил қилиш, уларни зарур асбоб-ускуналар билан жиҳозлаш, киберспорт турлари бўйича халқаро турнирларни ўтказиш учун халқаро ташкилотлар **грантлари, техник кўмак ва бошқа ташки бегараз кўмак маблағларини** жалб қилиш чораларини кўрсинг;

«Uzbekistan Esports Championship» республика чемпионати, «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси кубоги» ва «Ёшлар кубоги» турнирларининг **сараплаш босқичлари ўтказилишини тъминласин.**

16. Қорақалпогистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шахри ҳокимликлари Спортивни ривожлантириш вазирлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, Ёшлар ишлари агентлиги ҳамда киберспорт бўйича самарали фаолият олиб бораётган спорт федерация (ассоциация)лари билан биргаликда иккى ой муддатда ҳар бир ҳудуднинг битта тумани (шахри)да киберспортнинг камиди иккита турини оммалаштириш бўйича **«йўл ҳариталари»ни тасдиқласин.** Бунда 2023 йилдан бошлаб ҳудудларда қўйидаги чора-тадбирлар амалга оширилиши назарда тутилсин:

спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг ҳудудий **календарь режаларига** киберспорт турлари бўйича мусобақаларни киритиш ҳамда тизимили равиша ҳудудий спорт мусобақаларини ўтказиш, шу жумладан, ҳар йили бир маротаба **«Қорақалпогистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси Раиси кубоги»** ва **«Ҳоким кубоги»** турнирларини ташкил қилиш;

киберспорт бўйича тизимили равиша ҳудудий спорт мусобақаларини ўтказиш учун маҳаллий бюджетлар маблағлари, юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳомийлик хайрияларини **жалб қилиш;**

мусобақаларда **ғолиб ва совриндор бўлган жамоаларни** пул мукофотлари, диплом, медаль, кубок ва бошқа совфалар билан тақдирлаш;

киберспорт бўйича **ҳудудий спорт федерация (ассоциация)ларини ташкил қилишини** қўллаб-куватлаш, мавжуд спорт федерация (ассоциация)лари ҳудудий бўлинмаларининг фаолиятини кенгайтиришга кўмаклашиш.

17. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги (А. Кўчимов) ҳамда Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси (А. Хаджаев) бир ой муддатда киберспорт турларига нисбатан ижобий жамоатчилик фикрини шакллантириш, оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармокларда кенг тарғибот-ташвиқот ишларини олиб боришига қаратилган мақолалар эълон қилиш, тематик телекўрсатувлар намойиш этиш бўйича **медиа-режа қабул қиласин.**

18. Ушбу қарорнинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб спортивни ривожлантириш вазiri **А.И. Икрамов**, ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазiri **Ш.Х. Шерматов** ҳамда Ёшлар ишлари агентлиги директори **А.З. Сайдуллаев** белгилансин.

Қарор ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазiri А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси
Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент шахри,
2022 йил 16 ноябрь

Bugunimiz qahramonlari

«ШИФОКОР

Бўлиш учун туғилганман»



11-синфда ўқиётган кезлари эди. Шифохонага тушшиб колди. Ўсмири обдан текширган шифохонлар унда гиевмония алтамалари борлигини айтишиди. «Бошланни экан. Ўз вақтида келибди. Хали ҳеч нима кўрмагандек, тузалиб кетади. Тўтими, ўлим?» Шифохонага елкасини отагарча меҳр билан силади. 60-65 ўшлар атрофида бўлган, кўзлари кулиб турадиган бу инеонга унинг меҳри тушшиб колди. Шу кундан бошлаб, кўниглида шифохонлик касбига хавас ўйонди. Ҳа, шифохонага айтганидек, у тез кунда оёқка турди. Мактабга кайтди. Қайтганда ҳам қалбida «Мен, албатта, шифохонага бўламан!» деган қатъий массад билан кайтди.

Йиллар югурик. Унинг шиддат билан ўтаётганини айрим лаҳзаларда ҳис қилиш инсон табиатига хос. Бўй чўзилиб қолган фарзандингиз, ота-онангизнинг оқ оралаган сочлари... Вакт бунчалик тез ўтмаса?! Тиббий хизмат полковники Улуғбек Маматов шулар ҳақида ўйлар экан бир зум хаёлга чўмади. Ўтган тезоз йиллар салмоғини чамалайди. Беихтиёр юзлари ёришади. Ахир ҳаётади нимани истаган бўлса, ҳаракатига ярашасини олди. Аввалига шифохонага бўлиш илинжида Самарқанд давлат тиббиёт институтига ўқишига кирди. Ўшанда 1998 йил эди. Унинг шифохонага бўлмоқчилигини ўшитган ота-онасининг хурсандчилиги ҳали-ҳануз кўз олдиди. «Фарзандларим орасидан ҳам шифохонага чиқаркан», деб суюнган волидасининг қувонг кўз ёшларини унүтиб бўладими!?

Мактабда яхши ўқирди. Айниқса, кимё ва биология фанини ўзлаштиришда унга тенг келадиган йўқ эди. Шу сабабли ҳам тиббиёт олийгоҳига киришига кўйналмайман, деб ўзига ишонганди. 2.1 балл... бюджет асосида ўқишига киришига унга шунча балл етмади. Улкан орзулар қанотида, кўнглидаги мақсадга иштиёқ ила интилиб турган, қизиқонг ўйигитнинг ўша вақтдаги ҳолатини тасаввур қилиш кўйин эмас. Ҳар қандай инсон бундай вазиятда бир муддат бўлса-да, тушкунликни бошидан кечиради. Унда ҳам шундай ҳол бўлди. Аммо тезда ўзини ўнглади. Ахир мақсади қатъий-ку. Демак, тушкунликни тикиши, орта чекинишига ҳаққи йўқ! Шундай қилиб, яна ўқиши ва ўрганишига зўр берди. Бу интилишлари келаси йили ўз самарасини берди: у кириши имтиҳонидан муваффақиятли ўтди. Ёдида, институтдаги етти йиллик таҳсил давомида соҳа сирларини мукаммал эгаллашга ҳаракат қилди. Дарслардан сўнг кутубхонага бориб, билимини янада бойитди. У жуда тиришқоқ ва интилувчан эди. Үндаги ана шу фазилат устозларининг назарига тушшигига сабабчи бўлди...

Ниҳоят, 2005 йил институтни тамомлаган ёш шифохонага Каттақўргон шахридаги болалар шифохонасида илк фаолиятини бошлади. Катта даргоҳ, яна малакали шифохонлар жамоаси... Касб сир-синоатларини ўрганишига иштиёқманд ўйигит учун бу ўзига хос мактаб вазифасини ўтади. У вазифасини иштиёқ билан бажааради. Кўли енгил ва шириңсўз шифохонадан беморлар ҳам мамнун эд, албатта.

2008 йили Қуролли Кучлар сафига чақирилди. Энди у ҳарбий шифохонага эди! Ҳарбий жамоага кўниши кишин кечмади. Билимли, доим ўз устида ишлашни қандай қилимайдиган бу навқирон шифохонага янги жамоада ҳам ҳамкасларининг ўтиборини тортган эди. Кўпни кўрган малакали ҳарбий шифохонага Бобоқалон Ҳалимов ҳам Улуғбек Маматовнинг бу соҳага алоҳида иктидори борлигини ўз вақтида илғай олганди. Шундай қилиб, ўш мутахасисига ўз билим ва тажрибаларини ўргатишига киришид...

Дарҳақиқат, дадиллик, ўзига ишонч, тинимиз ўқиши ва изланиш Улуғбек Маматов учун муваффақиятта кенг йўл очди. Аввало, қайси жамоада хизмат қилмасин, ўрин топди, ўтибор қозонди ва ўтирофга сазовор бўлди. Қуролли Кучларимиз ташкил топганлигининг 30 йиллиги ҳамда Ватан ҳимоячилари куни байрами муносабати билан юртбошимизнинг фармонига кўра, бир катор фидойи инсонлар қаторида тиббий хизмат подполковники Улуғбек Маматовнинг II дараражали «Саломатлик» ордени билан тақдирлангани фикримизнинг яққол исботиди.

Албатта, бу мукофот уни Ватан ҳимоячиларининг саломатлигини ҳимоя қилиш йўлида янада куч-ғайрат билан хизмат қилишига руҳлантиргани, шубҳасиз.

– Мени шундай ўқисак ўтирофга лойиқ кўришганидан миннатдорман, – дейди мақоламиз қаҳрамони. – Бу мен учун шараф. Мукофот менга қанот багишилади, янги-янги мэраларни забт этишига ундовчи илҳом бўлди. Албатта, бу ютуғимда аввало, устозларим билан бирга мени ҳар доим кўллаб-куватлашган, ҳамиша ишонч билдириган жамоадошларимнинг бекиёс ҳиссаси бор. Уларсиз мен ҳеч нимага эриша олмасдим. Шунинг учун ҳам уларнинг ишончини оқлашга, касбимга, вазифамга янада масъулият билан ёндашишга интиламан. Тўғри, ҳар бир касбнинг ўзига хос кийинчиликлари, машаққатлари бўлади. Лекин инсон ўз касбини севса, касбига меҳр кўйса, бу машаққатларни сабот билан енгади. Бу исботланган ҳаёт ҳақиқати.

Тиббий хизмат подполковники Улуғбек Маматов айни кунда Қарши ҳарбий госпиталига раҳбарлик қилиб келмоқда. Унинг номини жамоадагилар талабчан бошлиқ сифатида тилга олишади.

– Раҳбар жамоани бошқаришда, умуман, яхши бошлиқ бўлиши учун нималарга ўтибор бериши керак? – деб сўрайман сухбатдошимдан.

– Тўғрисўзлик, ҳаққонийлик ва жамоадаги каттаю кичикка бирдек самимий мумомалада бўлиш – яхши бошлиқнинг фазилатлари саналади. Бу менинг кўп йиллик шахсинг кузатишларимдан олган холосам. Жамоада ўрин топманан деган раҳбар аввало, кўл остидаги ходимларнинг кўнглигига йўл топиши, ишончини қозониши лозим. Керак бўлса, уларнинг характерларини ўрганиши зарур. Албатта, бу иш сифати ва салмоғига ҳам таъсир қиласди. Чунки раҳбарни хурмат қилган ходим хато қилишдан, шу орқали ишончини йўқотишдан кўрқади. Демак, бошқарудва самимий бўлиш, ходимлар билан унчалик ҳам масофа сақламаслик яхши натижа беради.

– Шу ўринда сиз етакчилик қилаётган госпиталь фаолияти ҳақида тўхталиб ўтсангиз.

– Бугун тиббиёт замон билан ҳамқадам одимлаётган соҳалардан бирига айланди. Бунинг натижасида ҳарбий тиббиёт муассасаларининг қиёфаси ўзгарди, моддий-техник базаси мустаҳкамланди. Ана шундай испоҳотлар натижасида Қарши ҳарбий госпитали янги худудга, капитал таъмирдан чиқарилган янги бинога кўчирилди. Бу ерда беморларга тез ва сифатли ёрдам кўрсатиш учун барча шарт-шароитлар яратилган. Шифохонарларимизнинг барчаси тажрибали. Шу ўринда фидойи инсон истеъфодаги подполковник Жўрақул Мамадалиевнинг номини алоҳида тилга олиб ўтсан. Чунки айни вақтда 82 ёшни қарши олган устозимиз ҳалиям биз билан бир сафда Ватан ҳимоячилари ва уларнинг оила аъзоларининг саломатлигини тиклаш йўлида хизмат қилиб келмоқда. Тиббий қисм бўлми ҳамшираси Фароғат Тилакова ҳам кўп йиллик тажрибага эга ана шундай ходимларимиздан. Бу инсонларнинг ўз касбига бўлган муҳаббатини бошқаларга ўрнак килиб кўрсатсан арзиди.

– Ҳаётингиз давомида танлаган касбингиздан афсусланган вақтларингиз ҳам бўлганни?

– Йўқ, ҳеч қаён танлаган касбимдан афсусланмаганман. Чунки ўзимни бошқа касбда тасаввур қиломайман. Мен фақат шифохонага бўлиш учун туғилганман (кулади).

– Ватан туйғусини қандай таърифлайсиз?

– Ватан туйғуси – бу инсоннинг туғилиб ўтсан масканияга бўлган муҳаббат хиссидир. Инсон қаерда туғилиб ўтсан Улуғбек Маматов учун таърифлайсан арзигуллик саломатлигини тиклаш юнидади. Энди ҳарбий тиббий хизмат қилиб келмоқда. Тиббий қисм бўлми ҳамшираси Фароғат Тилакова ҳам кўп йиллик тажрибага эга бу неъматнинг қиймат

Xalq va armiya yakdil

ҲАМКОРЛИКДАГИ ФАОЛИЯТ

ТИНЧЛИК ВА ОСОЙИШТАЛИК КАФОЛАТИ



Бироз салқин бўлишига қарамасдан, ёқимли ҳавода саф тайёргарлиги билан шуғуланаётган ҳарбий либосдаги давлат бошқарув органлари раҳбарларининг ҳарбий ҳаётга мослашишлари у қадар қийин бўлмади. Уларнинг аксарияти муддатли ҳарбий хизматни ўтаган ёки ҳарбий кафедрада таҳсил олган. Орасида расмана ҳарбий хизматни ўтаб, юрт равнақи йўлида хизмат қилиб, нафақа гаштини суроётганлари ҳам бор.

Гапнинг индаллосига кўчсак, Мудофаа вазирлигига қарашли Чирчик умумкўшин полигонида давлат бошқарув органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, хўжалик бирлашмалари ва бошқа ташкилотлар раҳбарлари иштироқида йигин ўтказилди.

Белгиланган режа асосида вазирлар, раислар, агентлик ва инспекция бошликларининг ўринbosарлари, бош директорлар кўшинлар кундалик фаолияти билан танишган ҳолда, мамлакат мудофаасини ташкиллаштириш доирасида юклатилган вазифалар бажарилишининг самараадорлигини ошириш учун бевосита ҳарбий хизмат мухитида бўлдилар.

Йигин пунктига етиб келган иштирокчилар тиббий-кўрикдан ўтказилиб, ҳарбий кийим-кечак ва анжом-аслаҳалар билан таъминланди. Улар ҳарбий-ҳисоб мутахассислиги бўйича гурӯхларга тақсимланди. Зеро, мазкур йигин орқали давлат ҳокимияти органлари раҳбарларини жанговар тайёргарлик фанлари бўйича назарий ва амалий машғулотларни ўтказиш йўли билан аввал олинган ҳарбий кўникмаларини қайта тиклаш (*шакллантириш*) ва такомиллаштириш, шунингдек, худудий мудофаа ва фуқароларни ҳимоя қилишни ўрганиш (*ўзлаштириш*), маънавий-ахлоқий ва маънавий-руҳий сифатларини ривожлантириш,

давлат ҳарбий қурилиш ишларида олиб борилаётган ислоҳотлар билан танишириш, даҳлдорлик ҳисларини ошириш мақсад қилинганди.

Йигинда Ўзбекистон мудофаа вазiri генерал-лейтенант Баҳодир Қурбонов ҳам иштирок этиб, бир неча кун давом этадиган машғулотлар мамлакат армиясининг қудрати билан яқиндан танишиш, ҳамкорликда фаолият олиб бориш йўлида муносабатларни мустаҳкамлаш учун етарли имконият эканини таъкидлади.

Давлат бошқарув органлари раҳбарлари жаҳон ва минтақадаги ҳарбий-сиёсий вазият бўйича таҳлилий маълумотлар, Қуролли

Кучларни ривожлантиришда ҳарбий-маъмурӣ секторларнинг фаолияти ва аҳамияти билан яқиндан танишдилар. Улар ҳарбий алоқа, биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш, спорт ҳамда отиш тайёргарликларидан ўтиб, ўзларининг билим, тажриба ва кўнкимларини мустаҳкамладилар.

– Ишонасизми, ҳарбий либос эгнимда турса, дунёга бошқача назар ташлай бошлашимни ҳис қилдим. Гўё, Ватан мудофааси зиммамда тургандек. Машғулотлар давомида професионал мутахассислардан назарий билимлар олдик, амалий кўнкимларимизни мустаҳкамладик. Қурол-аслаҳаларни йиғиб-социш, алоқа





Bekrion ABDURAHIMOV

воситалари билан ишлаш, ҳарбий тиббийт асосларидан ўзимизни синаб кўриш давомида менга ҳарбий кафедрада ўргангандарим асқатди. Захирадаги лейтенант сифатида ҳарбий либосда Ватан ҳимоячилари сафида эканимидан яшимайман, фахр ҳиссими тўйдим, – дейди Туризм ва маданий мерос вазири ўринбосари Нусратилла Зикриллаев.

Иштирокчилар фақат ҳарбий машғулотлар билан чекланиб қолмадилар. Улар орасида турли спорт ўйинлари бўйича мусобақалар ташкил қилинди. Турнирда тортишиш, тош кўтариш, арқон тортишиш, футбол, волейбол бўйича беллашувларда турли раҳбарлик

лавозимларида фаолият юритаётган ҳамюртларимиз ўзлари учун жисмоний тарбия билан шуғулланишга вақт топа олаётганликларини исботлашди. Айниска, ёши улуғ кишиларнинг бошқалардан қолишмасдан машқларни тўлақонли бажариши олқишига сазовор бўлди.

Ўқотар ва гурӯх қуролларидан амалий отиш машқлари (кўргазмали), портладиган (портламайдиган) тўсиқларни

яратиш (зараарсизлантириш), электр усулда портлатиш ва муҳандислик иншоотларини фортификацион жиҳозлаш, гурӯх тарқибида десант тўсиқлар йўлагидан ўтиш, дала шароитларида бўлинмаларнинг фронторти таъминотини ташкиллаштириш (кўргазмали машғулот), замонавий қуролли туқнашувлар тажрибасидан келиб чиқиб, дала шароитида ҳарбий хизматчиларни овқатлантириш каби машғулотлар йиғин иштирокчилари учун унуптилмас таассуротларга бой бўлди. Улар шу аснода ўзларини қизиқтирган саволларга мутахассислардан батафсил жавоблар ҳам олдилар.

Иштирокчиларнинг ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш борасида амалга

оширилаётган ишларда вазирлик ҳамда идораларнинг ўрни ва роли, мавжуд муаммолар ва уларнинг ечими бўйича таклифлари ҳам ўрганилди. Психологик сўрвнома эса иштирокчилар ва ташкилотчилар учун кўплаб фойдали маълумотларни берди.

Йиғин давомида ўтказилган турли маданий-маърифий тадбирлар иштирокчиларнинг ҳарбий хизматчилар ҳаёти билан янада яқиндан танишишларига хизмат қилди.

**Капитан Азиз НОРҚУЛОВ,
«Vatanparvar»**



18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun

G'ALABA, QAT'YIY KUCH VA BIRLIK RAMZI



O'zbekiston hali mustaqillikka erishmagan, u hamon sho'rolar tarkibida bo'lgan davrdayoq ota yurt istiqloliga doir yangi davlat ramzlarini tayyorlash, qabul qilish jarayoni boshlab yuborilgan edi. 1991-yilning 15-fevralida O'zbekiston SSRning Oliy Kengashi tomonidan "O'zbekiston Davlat ramzları to'g'risida"gi qaror qabul qilingandi. Qarorda, jumladan, shunday deyiladi:



"Mustaqillik to'g'risidagi Deklaratsiyaga qat'iy tarzda amal qilib, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi qaror qiladi:

1. O'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning II sessiyasida tuzilgan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (*Asosiy Qonuni*)ning yangi loyihasini tayyorlovchi komissiyasiga O'zbekiston SSRning yangi Davlat bayrog'i, gerbi va madhiyasiga doir takliflar hamda ular to'g'risida nizomlar tayyorlash topshirilsin.

2. Bu boradagi takliflar matbuotda e'lon qilinib, umumuxalq muhokamasi uyushtirilsin..."

Bu qarorning ijrosi yuzasidan rassomlar, tarixchi olimlar, deputatlar va keng jamoatchilikning takliflari maxsus komissiya tomonidan jiddiy o'rganib chiqilgan edi.

Shunday qilib, ikki yuzdan ziyod eskiz – namunalarining orasidan biz bugun sevib-ardoqlaydigan, g'oyat qadrlaydigan, boshimiz uzra baland ko'taradigan behad qutlug' Davlat bayrog'i tasviri qabul qilingan edi.

Bugun dunyoning manaman degan xalqaro tashkilotlari binolari oldida mag'rur hilpirab turgan Vatanimizning – aziz va muqaddas O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991-yilning 18-noyabrida tasdiqlandi. "O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonunning 2-moddasida huquqiy, yuridik jihatdan qat'iy tarzda "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir" deb belgilab qo'yildi.

Ma'lumki, ramzlar va timsollar faqtgina ma'lum bir ranglar, belgi, tasvirlardangina iborat emas, ularda o'ziga xos g'oyalar ilgari suriladi, maqsad-muddaolar ifodalanadi. Shu ma'noda bayroq – g'alaba, ko'zlangan marrani ishg'ol qilish, o'ta qat'iy kuch, shuningdek, o'zaro birlashuvning ko'zlarimizga yaqqol tashlanib turadigan timsoli.

O'zbekiston bayrog'i Vatanimiz hududida qadimda mayjud bo'lgan qudratli davlatlar merosi bilan tarixan bog'liqlikni anglatib, buyuk ajdodlarimizning milliy, madaniy an'analarini ham o'zida mujassamlashtiradi.

Uch yarim ming yildan ziyodroq buyuk tarixga ega bo'lgan O'zbek davlatchiligining ilk davrida o'ziga xos mafkura vazifasini g'olibona o'tagan bobokalon kitob "Avesto"da qora rang qorong'ilik va zulmat, oq rang poklik belgisi sifatida ta'rif va tasnif etilgan.

Xuddi shuningdek, eng qadim ajdodlarimiz – turkiy xalqlar dunyoqarashida dunyo qutblari hozirgi davrdagidan farqli tarzda, faqat so'zlar bilan emas, ranglar bilan ham ifodalangan, masalan, qizil – janubni, qora – shimolni, yashil – sharqni, oq – g'arbni, sariq rang ramziy ravishda markazni anglatgan edi. Hozirgi davrda esa xalqaro emblematika – timsolshunoslikda oltin rang – hokimiyat, kumush – donolik, qizil – mardlik, moviy – sadoqat, yashil rang ozodlik mazmunini ifodalaydi.

Minglab yillik tarixga ega ota yurtimiz – O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'idagi moviy rang tiriklik mazmuni yaqqol aks etgan mangu osmonning va obihayotning ramzidir. Timsollar tilida bo'lsa bu – yaxshilik, donishmandlik, halollik, shon-shuhurat hamda sadoqatni bildiradi. Binobarin, buyuk saltanat asoschisi – bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur davlatining bayrog'i ham aynan moviy rangda bo'lgan.

Elimizning buyuk davlat, adolatlari fuqarolik jamiyatni barpo etish g'oyasi, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, eng avvalo, uning davlat ramzlarini, timsollarida o'zining chinakam ifodasini topgan. Shu boisdan ham ajdodlarimiz hayotida ramzlar va timsollar behad e'zozlangan.

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti" nomli asarida bayroqning davlat hayoti hamda jang-u jadallarda tutgan yuksak o'rni, roli masalasiga doir sahifalar benihoya bisyor. Ularning faqat ikkitasinigina sohir ibrat, o'rnak olish niyatida sizning diqqat-e'tiboringizga havola etamiz:

"Chingizxon Qandahorda o'z qo'shinlari boshiga qanday talafot tushganini bilgach, o'g'li Tulixonni g'oyatda keskir qilichdek mard, to'qimning tagiga solinadigan namatday sadoqatli, judayam yaxshi saralangan lashkarlardan iborat ko'p ming sonli qo'shinga bosh qilib otlatirdi... Jaloliddin esa uni Parvon yonida tog'ning sel oqimi singari behisob otiqlar hamda sher kelbatli lashkarlari bilan qarshiladi. Ikkala qo'shin bir-biriga ko'ringanda uning

o'zi Tulixon markaziga otilib kirdi, ularning jangovar saflarini buzib tashladi, yog'i bayrog'ini otlar tuyoqlari ostiga itqitdi. Uni o'z safini tashlab orqasiga qochishga majbur qildi..."

Voqealarning yana birida 1228-yilning 25-avgustida Isfaxon yaqinida mo'g'ullar lashkari tomonidan o'rab olingen Jaloliddin va safdoshlariga ota yurti bayrog'i qanday ko'mak bergani xususida hikoya qilingan:

"Sulton markazdan o'r'in egalladi. Ammo bu yerda ham tartib birmuncha buzilib ketgandi, tug' himoyachilaridan anchra uzoqlashgan, dushman ularni ham har tomonidan o'rab olgandi. Qamal doirasi tobora qisqarib, ignanining teshigi misol kichrayib borardi.

Sulton esa shu payt orqasiga qarab, o'z yalovbardorining ochib ketayotganini ham ko'rib qoldi. Sultan uning orqasidan yetib olib, nayzani sanchib o'ldirdi. Bayroqni o'z qo'liga oldi. Keyin totolarning safiga hujum qilib, o'zi va safdoshlari uchun yo'l ochdi. U qamalni yorib, chiqib ketdi".

Jaloliddin sirayam iloj qolmaganidan keyin bir qo'lida ot jilovini mahkam tutgan, ikkinchi qo'lida bo'lsa ota makon bayrog'ini baland ko'targancha bir tomchi qoni qolguniga qadar yog'i bilan kurashish maqsadida azim daryodan o'tib ketgan edi.

O'zbekiston bayrog'idagi oq rang – xalqimiz uchun muqaddas tinchlik va omonlik, xotirjamlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan bevosita uyg'unlashib ketadi. Oq rang – poklik, beg'uborlik, soflik, orzu-umidlar, niyat va xayollarning tozaligi, musaffoligining o'ziga xos timsolidir.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga kiritilgan yangi qo'shimchaga ko'ra oq rangga tegishli tavsiflar yanada kuchaytirilgan. Xususan, qonunga binoan "yangi oy" so'zi endi "oq rangli yangi oy" shaklida ifodalangan. Shuningdek, "besh qirrali yulduz" so'zlariga uning mazmun-mohiyatini yanada oydinlashtiradigan "oq rangli" degan yangi sifat ham qo'shilgan.

Yashil rang qadim-qadimdan ona tabiatning yangilanish ramzi bo'lib kelgan. Bu rang bugun ham butun kurrai zamindagi ko'pgina xalqlarning dunyoqarashida navqironlik, orzu-umid hamda shodlik-shodmonlikning ramzi hisoblanadi.

Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy kuch-qudrat irmoqlarini anglatadi. Butun dunyoga halollikning ramzi sifatida chiqib kelgan o'zbek kurashida pahlavonlar ko'k va yashil yaktaklariga qizil belbog'larni bog'lab olganlarini ham shu ma'noda teran tushunish mumkin.

Navqiron yarim oy (hilol) tasviri, minglab yillik tarixiy an'analarimiz bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mangulikning asl timsolidir. Ayni chog'da, hilol asrlar mobaynida tinimsiz davom etgan ozodlik uchun kurashlar natijasida haqli, asosli ravishda qo'liga kiritilgan muqaddas milliy istiqolimizning ramzi ham hisoblanadi.

Yulduzlar qadim-qadimdan mangulik hamda mukammallikning ramzi sifatida ifodalab kelingan. Xalqaro miqyosda esa u XVIII asrdan boshlab buyuk marralar sari intilish, ideallar, orzu-umidlarning haqiqiy, chinakam timsoliga aylanib ketgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'idagi 12 ta yulduz tasviri milliy-tarixiy an'analarimiz, qadimgi yilnomamizga bevosita aloqador. Boz ustiga 12 raqami ajdodlarimizning tasavvurida chinakam mukammallikni anglatgan.

**Durdona MAHMUDOVA,
Namangan davlat universiteti
magistranti**

TUG' / BAYROQ

Bayroq nomi manbalarda tug', alam, baydak, bayrak shaklida uchraydi. Bayroq qadimdan davlat ramzi sifatida e'zozlangan va qattiq qo'riqlangan. Chunki jang maydonida tug' va bayroqlarning ahamiyati katta bo'lib, uning joylashuvi, harakati, holati qo'shin sarkardalarining strategiyasi va taktikasini, marralar egallaganligi yoki aksinchaligini, o'z safdoshlarini ajrata olish va chekinish alomatlarini bildirgan. Bundan tashqari, tug'ning ko'tarilishi va askarlar boshi uzra ildamlab borishi qo'shining ruhini ko'tarib, olg'a undagan, vatanparvarlik hissini kuchaytirgan.

Xitoy sarkardasi U-dzi o'zining urush san'ati haqidagi asarida "Barabanlar va nog'oralar quloqlarni vahimaga soladi, bayroqlar, tug'lar, bunchuqlar ko'zlarni dahshatga soladi" deb yozishi tasodifiy emas edi.

Qang' davlati davrida harbiy qo'shinda dastlab ikki guruhda bayroq harakatlangan bo'lsa, Qoraxoniylar davriga kelib 9 ta guruh bayrog'i jang maydonida g'alaba sari intilgan.

Amir Temur davrida esa xuddi shaxmat donalari singari o'n ikki bo'linnada o'n ikki xil rangda joylashtirilgan. Ularning bayroqlari, quroq-yarog', kiyim-kechagi ham turlicha bo'lgan. Masalan, birinchi guruh asosan qizil rangda bayroq ko'targan. Ikkinci guruhning rangi ko'k, uchinchi guruhning rangi oq, to'rtinci guruhning rangi binafsha, beshinchi guruhning rangi esa sariq va hokazo. Har bir bo'linmaning alohida rangi lashkarboshiga uning buyruqlari qanday bajarilayotgani va jangning borishini kuzatib turish imkonini bergen.

Markaziy hokimiyat ramzi bo'lgan bayroq – alam odatda butun jang maydonida yaqqol ko'zga tashlanib turadigan tepalikdagi qarorgohga, butun qo'shinga ko'rindigan joyga o'rnatilgan.

Qo'shin boshlig'ining bayrog'i o'ziga xos shaklga ega bo'lgan. Amir Temur bayrog'i uzun yog'och tepasiga o'rnatilgan mohcha – Amir Temur gerbi va katta zangori matodan iborat bo'lgan. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo Temurning gerbida uchta doira tasvirlangani haqida xabar beradi. Miniyaturlarini o'rganish va zamondoshlarning ma'lumotlari asosida Amir Temur va vorislarining gerbi oltin nurlar sochayotgan quyosh bayrog'ida tasvirlangan sher ko'rinishida bo'lganligi aniqlangan. Bu gerb Samarqanddagi Registon hududidagi Sherdor madrasasasi peshtoqini bezashda ishlatalgan.

Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanova" ("Sharafnomai shohiy") asarida jang tasvirida shunday ta'rif keltirilgan: "Jahon kezuvchi osmon ajdahosi bayroq ajdahosining xavfidan sarosima va sargardonlikka tushdi. Haybatli falak sheri tug' sherining vahimasidan o'zini charxning niqobiga tortdi".

Klassik she'riyatda va umuman o'rta asr sharq adabiyotida Mirrix (Mars) sayyorasi osmon (falak) ajdahosi yoki sheri deb atalgan. Bayroq sheri va ajdahosi – o'rta asr Sharq qo'shinining bayrog'iga tushirilgan tasvirlarga ishoradir. Asardagi "ajdaho surat bayroq", "ajdaho shavkatli bayroq"lar xususida bir necha marotaba eslab o'tiladi.

Buxoro amirligi ham o'z harbiy tug'i – bayrog'iga ega bo'lgan. Rus sayohatchisi Ye. K. Meyendorf amirlikdagi pansodboshi 500 kishilik qo'shin "bayroq" deb atalgan kichik bayroq bilan jangga kirganligi, mingboshi yonida esa "tug'" deb atalgan katta bayroq ko'tarilib turishini yozgan. Shunindek, to'qsabo lavozimidagi shaxs ham harbiy harakatlar chog'ida amir bayrog'ini ko'tarib yurgan.

Tojirning "G'aroyibi sipoh" asaridagi ma'lumotga qaraganda, Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1822–1842) qo'shini besh tug'li lashkari bilan jangga kirgan. Jumladan, ko'k rangli tug' bilan xonning qaynotasi Muhammadsharif Otoliq,

qizil tug' bilan Sayyid qo'shbegi, qora tug' ostida xonning tog'asi Xolibek qo'shbegi, oq tug' ostida besh ming qirg'iz askari bilan Norqo'zi parvonachi va sariq tug' ostida Xo'ja Murod dodxoh urushga kirgan ekan. XIX asr Xiva tarixchisi Bayoniyning yozishicha, Xiva xoni Muhammad Rahimxon (1848–1849)ning jang vaqtida qo'shin oldida Pahlavon ota, Eltuzarxon, Muhammad Rahimxon va boshqalar 5 ta davlat tug'i – bayroqlarni ko'tarib borganligini yozgan. Shuningdek, muntazam bo'lmagan qo'shin, ya'ni "qoraqozon"larning ham o'z tug'i bo'lganligi manbalarda qayd etilgan.

Bayroqning holatiga oid belgilarni, ya'ni tug'lar anglatadigan ma'nolar – belgili buyruqlarni barcha jangchilar bilishi zarur edi. Qo'mondon qarorgohi joylashgan yerda o'rnatilgan oliy bayroq baland ko'tarilgan bo'lsa, g'alaba yaqinligini yoki yordam kelayotganini anglatgan. Agar u yuqorida hilpirab turgan bo'lsa, hukmdorning xavf ostida qolganligini, agar tushirib qo'yilgan bo'lsa mag'lubiyatni, dushman bayrog'i qo'lg'a kiritilgan bo'lsa, to'liq g'alabaning belgisi hisoblangan.

Amir Temur urush vaqtida bayroqlar harakatidan ham unumli foydalangan. Masalan, Terek daryosi bo'yida Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan uzoq davom etgan kurashning hal qiluvchi jangida Amir Temur To'xtamishning bayroq dorini sotib olgan va u urush qizib turgan paytida bayroqni tushirgan. To'xtamish askarlar esa buni jangdagi mag'lubiyat sifatida tushunganlar va bu holat urushning borishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

1398-yilda bo'lgan jangda Amir Temur o'z bayrog'ini shahrisabzliklarga topshirgan va shu tarzda dushmani chalg'itib, chaqqonlik bilan o'tkazgan manevr orqali raqibni taslim bo'lishga majbur etgan.

Jang maydonida bayroqdan foydalanish 1800-yilda yuz bergen "G'urumsaroy jangi"da ham ko'zga tashlanadi. Bu haqda "Tarixi Shohruhiy" asarida shunday ma'lumotlar kelgan: Qo'qon xonligi sarkardasi "Rajab qo'shbegi daryodil amirning nusratasar lashkari muqaddimasini ko'rib, joyidan turib otga mindi. Butun lashkar ham shu yerda kamonlarini o'q bilan to'ldirib, nayza va bayroqlarini ko'tarib dushman ustiga bostirib bordilar. Tug' ko'targan suvoriy oti oyog'iga ishkak bog'lab, ellik nafar tojik merganlarni tug' ostiga qoldirib, ularga – qachon biz jangga kirishsak, sizlar shu yerda ustuvor va barqaror turing. Bizning oldi va orqamizga ishlari bo'lmashin, zero janggohda goh biz surib oldinga ketamiz, goh ular bizni chekinishga majbur qiladilar. Biroq agarda dushman sizlarga va tug'ga qasd qilsalar, davra bo'lib miltiqlardan otinglar. Agarda sizlarga g'olib kelmoqchi bo'lsalar, sizlarga zarar yetkazishlariga yo'l bermaymiz. Shu so'zlarni aytilib, saflarini rostlab jang talab bo'lib turdilar". Jang vaqtida tug' ko'targan askar o'qdan halok bo'lsa ham tug' yiqilmagan. Shundan so'ng Qo'qon xonligi qo'shini g'alaba qozongan.

**Sherali QO'LDASHEV,
O'Z FA Sharqshunoslik instituti
katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari nomzodi, dotsent**

CHEGARADA VATAN TIMSOLI

Davlat ramzlari har bir mamlakatning mustaqilligini ifodalovchi muqaddas belgi bo'lib, ular xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida mujassam etadi. Vatanning yorqin timsoli bo'lgan milliy ramzlar qadimdan or-nomus va shon-sharaf sanalgan. Shuning uchun ham To'maris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi o'nlab sarkardalar yurtni sevib, uning ramzlarini e'zozlashgan.



Bizga ajdoddalar meros bo'lgan hur diyormizning Davlat bayrog'i ham mamlakatimiz suverenitetining ramzi hisoblanib, u Yer yuzining shu sarhadlarida mustaqil O'zbekiston davlati borligini anglatadi va o'zida milliy madaniy an'analarimizni ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i xalqaro maydonda, jumladan, rasmiy delegatsiyalarimizning xorijiy mamlakatlarga safarlarini chog'ida, xalqaro tashkilotlarda, konferensiylar, jahon ko'rgazmalarida hamda sport musobaqalarida O'zbekiston Respublikasining timsoli bo'ladi.

Amaldagi qonunchiligidizda Davlat ramzlari tasviri tushiriladigan belgilardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasining asosiy chegara ustuni ham qayd etilgan. Shuningdek, bayrog'imiz doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan o'tish punktlarida hilpirab turadi.

Tarixdan ma'lumki, qadimgi davrlarda ilk davlatlar orasida va ajdodlarimizning yashash joylari o'tasida aniq ma'muriy chegaralar bo'lmagan. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So'g'd chegaralarini tabiiy bo'lib, yaqin hududlardagi o'troq yashash joylarining tabiiy geografik bo'lувchisi sifatida dashtlar, cho'l va tog'lardan foydalilanilgan. Shaharlar esa mudofaa devorlari bilan o'rab olingan.

Zamonlar osha o'z hududini qo'shni davlat hududidan ajratishga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borishi natijasida, chegaralarini yog'och va toshlar yordamida belgilash amalga oshirilgan. Ta'kidlash kerakki, ayrim davlatlarning chegaralarini hududiy joylashuviga ko'ra, tog', suv, qir-adir va o'rmonli hududlardan o'tgan bo'lsa, Yer yuzida markaziy ko'chalar, binolar, restoran va kafelar o'tasidan o'tadigan ko'plab antiqa chegaralar ham mavjud.

XVII asrga kelib, davlatlar o'tasidagi chegaralarni belgilash uchun g'isht ustunlaridan foydalana boshlashgan. Hozirgi ko'rinishdagi temir-beton chegara ustunlarini o'rnatish esa, XIX asrdan e'tiboran yo'lga qo'yilgan. Asosiy chegara ustuni turli davlatlarda turlicha ranglarda bo'ladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi asosiy chegara belgisining ustuni esa butun balandligi bo'ylab O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini o'zida aks ettirgan holda, moviy, qizil, oq va yashil ranglarga bo'yalgan. Ustunning old qirrasida Davlat gerbi tasvirlangan bo'lib, belgilangan tartib raqamiga ega.

Chegara ustunining aynan davlatimiz bayrog'i ranglarda bo'lishi bejiz emas, albatta. Bu eng avvalo, chegaradosh davlatlarga ustun o'rnatilgan joydan mustaqil O'zbekiston Respublikasining hedudi boshlanishini anglatishi bilan birga, shu muqaddas Vatan ostonasida turib, uning daxlsizligi va osoyishtaligini qo'riqlayotgan chegarachi o'g'onlarning jangovar ruhini yanada oshirishga, ularning qalbida yuksak vatanparvarlik g'urur va hislarini uyg'otib, Ona Vatanimiz hamda uning davlat ramzlariga nisbatan cheksiz hurmat, mehr-muhabbat va azm-u shijoat ila har qanday vaziyatda ham o'z burchlariga sodiq qolishga va zimmalaridagi jangovar vazifalarini sidqidildan ado etishga undashi bilan ham ahamiyatlidir.

**Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shini**

Amir Temur jangovar bayrog'i uchun

**БАЙРОК КИМЛАДА**

Хабарингиз бор, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 ноябрдаги қарорига асосан, Мудофаа вазирлиги қўшинларида ҳар икки йилда бир маротаба «Амир Темур жанговар байроғи учун» мусобақаси ўтказилиши белгиланган.

Ушбу мусобақада юрт ҳимоячиларининг маънавий-интеллектуал тайёргарлигини, жанговар хизмат фаолиятида эришган ютуқларини муносиб рағбатлантириш, ҳарбий округлар ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантириш мақсадида ташкил этилаётган мазкур мусобақада округ қўшинлари фаол иштирок этмоқда. Мусобақа давомида ҳарбий хизмат-

чилярнинг миллий спорт турлари ва миллий қадриятлар йўналишлари бўйича ҳам беллашувлар ўтказилиши кўзда тутилган.

Куни кечга «Амир Темур жанговар байроғи учун» ўтказиладиган мусобақага старт берилди. Чирчик олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юртида бўлиб ўтган очилиш маросимида мудофаа вазирининг жанговар тайёргарлик бўйича ўринбосари, полковник Қодиржон Турсу-

нов иштирок этиб, «Амир Темур жанговар байроғи учун» беллашаётган жамоаларга омад тилади.

Қуръя ташлаш маросими эса қайси ҳарбий округ ва қўмондонликлар бир-бирлари билан беллашишига оидинлик киритиб берди.

Мусобақанинг биринчи кунида асосий шартлардан бўлган миллий кураш ва китобхонлик беллашувлари бўлиб ўтди. Ҳарбий округлар ва қўмондонликлардан ташриф буюрган иштирокчилар орасидаги мусобақа шаффоғ ва муросасиз ўтиши учун ўша соҳанинг мутахассислари жалб этилганлиги дикқатга сазовор.

Жумладан, миллий кураш баҳсига Ўзбекистон кураш федерациясининг халқаро тоифадаги ҳакамлари бошлиқ қилди. Улар томонидан ҳар бир ҳолат синчковлик билан кузатилган ҳолда, аниқ қарорлар қабул қилинди. Спортда доимий равишда баҳсли

ҳолатлар учраб туриши табиий. Шува шунга ўхшаш саволли эътирозлар жойида таҳлил қилиниб, соҳа мутахассислари томонидан адолатли қарорлар қабул қилинди.

Ҳарбий хизматчилар орасида ўтказилган китобхонлик баҳси профессор Қозоқбай Йўлдошев ва Турон фанлар академиясининг академиги Зухра Бердиева назорати остида ўтказилди.

Навбатдаги куннинг жараёнлар нуқтаси Чимён тоғ тайёргарлик марказида кечди. Барча жамоалар юқори шайлик ва бирдамлик билан мусобақанинг биринчи шарти доирасида «От миниш» машқларини бажаришга киришиши.

Миллий қадриятларимизга хурмат ва эр йигит қаноти ҳисобланмиш от миниш анъаналарини янада оммалаштириш, айниқса, ҳарбий хизматчилар учун катта масъулият





КОЛАДИ?



ва шарафдир. Не-не саркардалар от устида қахрамонлик кўрсатиб, довруғ қозонишган. Вафодорлик ва садоқат рамзи саналмиш тулпор ўз эгасини ҳар доим қийин вазиятлардан олиб чиққан. Бу хусусида тарихий манбаларда ҳам кўплаб далиллар келтирилади. Шуларни теран ҳис қилган ҳолда чавандоз олдида турган энг асосий вазифа от билан мустаҳкам алоқа ўрната олиш, бир-бирини сўзсиз тушуниш масаласидир.

Мусобақа давомида чавандоз йигитлар энг қисқа вақтда отни ушлаш, эгарлаш ва унга мингган ҳолда бир метр баландликдан ва кенглиги икки метр хандақдан сакраб ўтиб, 200 метр масофани югуриб ўтиш шартларини бажариши. Асосийси, жамоа аъзолари ўзларига бўлган юксак ишонч ва жанговар рухни сира туширганлари йўқ. Бу эса чавандозларга олға ҳаракат қилиш,

машқларни шижоат билан бажариш имконини бергани шубҳасиз.

Иккинчи ва учинчи шартлар Қўйи Чирчик туманида жойлашган «От заводи» базасида бўлиб ўтди. «Ҳарбий чавандозлар машқи»да иштирокчилар умумий тўрт минг метр масофага йўналиш бўйлаб отда ҳаракатланиб, колоннада – шеренгада юриш, от бўйидан келиб чиқиб ўрнатилган эни-бўйи чегараланган тўсиқлардан ўтиш, зигзаг ва 90 градусли кескин бурилишдан ўтиш, 3 минг метр масофага отлар пойгаси ва отда ҳаракатланган ҳолда аниқликка граната улоқтириш каби машқларни бажариши.

«Чавандозлик эстафетаси»да эса ҳар бир чавандоз 500 метрлик масофага бир-бирига эстафета таёқасини берган ҳолда галма-галдан от чоптириб боради. Энг қизиги, чавандозлар ҳаракатни бошлашдан

олдин от эгарида эмас, балки ерда турган ҳолда бўлади.

Ушбу мусобақага параллел равиша Чирчик олий танк қўмон-донлик-муҳандислик билим юритида ўзбек миллий спорт турларидан тош кўтариш бўйича баҳслар қизгин паллага кирган бўлса, «Темур тузуклари» бўйича ўтказилган савол-жавоблар жамоаларнинг маънавий салоҳиятини синовдан ўтказди.

Хуллас, кескин ва мунозарасиз тус олиши кутилаётган ушбу мусобақада барча шартлар комиссия томонидан аник вақт ҳисобида ўлчаниб, шартларни қисқа вақтда бехато бажара олган жамоа голиб деб топилди.

Эслатиб ўтамиз, мусобақа икки босқичда ташкиллаштирилди. Биринчи босқичда жанговар хизмат-фаолияти, кўрик-танловлар, спорт мусобақалари ва турли беллашувлар, професионал тайёргарлик,

ўқув ва машқлар, инспекторлик синовлари, назорат (якуний) синовлари, ахлоқий-руҳий тайёргарлик, ҳарбий интизом, ҳуқуқ-тартибот маълумотлари бўйича синовлар олиб борилса, иккинчи босқичда Мудофаа вазирлигининг маҳсус комиссияси томонидан йил давомида турли ҳалқаро ва республика миқёсидаги мусобақа ҳамда кўрик-танловлар натижалари сарҳисоб қилинади. 140 га яқин кўрик-танлов ва беллашувларни ўзида жамлаган мазкур нуфузли мусобақа натижалари жорий йилнинг декабрь ойида умумлаштирилади.

**Катта лейтенант
Бобур ЭЛМУРОДОВ,
Шерзод ШАРИПОВ,
«Vatanparvar»**



"Shunqorlar" musobaqasi

KUBOKNI



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining yoshlarni turli kasblarga yo'naltirish, o'sib kelayotgan avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni sportning texnik-amaliy turlariga qiziqishlarini yanada oshirish yo'lida olib borayotgan faoliyati har qanday e'tirofga loyiq. Shuning uchun tashkilotni bemalol jamiyatimiz taraqqiyoti ummonida suzib borayotgan ulkan kemaga o'xshatish mumkin.



Jamiyatimiz taraqqiyoti ummonida suzib borayotgan ana shu ulkan kema – "Vatanparvar" tashkiloti avtokross, motokross, pnevmatik quroldan o'q otish, yozgi biatlon, duatlon, triatlon, aviamodel, raketamodel, kemamodel kabi sportning texnik-amaliy turlari bo'yicha respublika hamda xalqaro miqyosdagi yuzlab championlarni yetkazib bermoqda. Tashkilot bayrog'i ostida o'tkazilayotgan "Shunqorlar" harbiy-sport o'yinlari ham mahalla, tuman va shahar yoshlari bir maqsad yo'lida birlashishga xizmat qilmoqda.

"Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy-sport o'yinlarining respublika bosqichiga "Chirchiq" dala-o'quv maydoni mezbonlik qildi. Viloyat, shahar va Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosdagi hududiy bahslarda g'oliblikni qo'iga kiritgan 14 jamoa hal qiluvchi bellashuvda ishtirok etdi. Musobaqa qatnashchilar Qurolli Kuchlar akademiyasi bazasi yotoqxonalariga joylashtirilib, ularga o'zlarini harbiy xizmatchidek his etishlari uchun barcha sharoit yaratildi.

17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan 154 nafar o'g'il-qizdan tashkil topgan jamoa harbiy-vatanparvarlik, harbiy-amaliy ko'pkurash va sport kabi bir-biridan

qiziqarli uchta yo'nalish bo'yicha o'zaro bellashdi. "Harbiy-vatanparvarlik yo'nalishi"da jamoalar O'zbekiston harbiy tarixiga doir bilimlarini namoyon etish bilan birga fotoalbomlar, vimpellar, "Men nechun sevaman O'zbekistonni" mavzusidagi taqdimotlari hamda harbiy-vatanparvarlik varaqalarini hakamlar hay'atiga taqdim qilishdi.

"Harbiy-amaliy ko'pkurash"da jamoa a'zolari pnevmatik quroldan o'q otish, o'quv granatasini uloqtirish va harbiylashtirilgan estafeta bo'yicha bellashdilar. Estafeta qatnashchilar "AK-74" avtomatini noto'liq qismlarga ajratish va to'liq yig'ish hamda gazga qarshi niqobni kiyib, belgilangan masofaga yugurish shartlarini bajardilar. Sport yo'nalishi esa duatlon (yugurish va velopoya), 100 metrga yugurish, turnikda tortilish kabi shartlarni o's ichiga oldi.

"Shunqorlar" harbiy-sport o'yinlari davomida yoshlarning musobaqa shartlarini bajarishlarida g'alabaga bo'lgan ishtiyoqi, harbiy kasba qiziqishi, chaqqonligi, mahorati hamda shijoati

yaqqol ko'zga tashlanib, ushbu o'yinlarning murosasiz, qiziqarli kurashlarga boy bo'lishini ta'minladi.

Do'stona ruhda kechgan musobaqada Xorazm viloyati sharafini himoya qilgan "Jaloliddin Manguberdi" jamoasingning qo'li baland kelib, kubok sohibiga aylandi. Jamoa o'z nomiga munosib holda buyuk sarkardaning izdoshlari ekanliklarini namoyish etdi. Keyingi o'rinalar Namangan ("Yurt qalqonlari") va Samarqand ("Humo") viloyati yoshlariiga nasib etdi.

"Shunqorlar" harbiy-sport o'yinlarining tantanali yopilish qismi ham barcha ishtirokchilarning bir umr yodidan chiqmaydigan taassurotlarga boy bo'ldi. Negaki, musobaqa g'olib va sovindorlari "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi raisi Husan Botirov, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinososari, senator Jamshid Xodjayev, Mufodaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasi boshlig'i polkovnik Hasan Xalilov, Yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisi Shohrux Qudratov kabi insonlardan diplomlar, medallar va esdalik sovg'alarini qabul qilib olishdi. Shuningdek, Qurolli Kuchlar markaziy ashula va raqs ansambl xonandalari, xususan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Marat Hakimov ijrosidagi kuy-qo'shiqlardan bahramand bo'lisdidi. Yoshlar esa o'z navbatida san'atkorlar tomonidan ijro etilgan "Bayrog'ing boshingda hilpirar", "Men g'olib!" kabi harbiy-vatanparvarlik qo'shiqlarini jo'r ovozda kuyladilar.



“JALOLIDDIN MANGUBERDI”



60 Mualif surʼatiga oʻgan

Taʼkidlash joizki, respublika va hududiy miqyosda oʼtkazib kelinayotgan “Shunqorlar” harbiy-sport oʼyinlari “Vatanparvar” tashkilotining “Vatanparvarlik – oliy maqsadim!” konseptual harbiy-vatanparvarlik gʼoyasi ostida yoshlarni birlashtirishga mustahkam zamin yaratmoqda. Bu jarayonda tarbiyalanayotgan vatanparvar yoshlar mamlakatimiz mudofaa qudratini yanada mustahkamlashda, ravnay topishida salmoqli hissa qoʼshishini anglatadi. Zero, “Shunqorlar” harbiy-sport oʼyinlari oʼtkazishdan asosiy maqsad, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, chaqiriq yoshidagi oʼsmirlarni Qurolli Kuchlar saflarida xizmat qilishga tayyorlab borish hisoblanadi. “Chirchiq” dala-oʼquv maydonida oʼtkazilgan bellashuv bu ezgu maqsadni amalda yana bir marta isbotlab berdi.

Nurjamal BAZARBAYEVA, “Lochin” jamoasi sardori (Qoraqalpogʼiston Respublikasi):

– Musobaqaning respublika bosqichida ikkinchi marta qatnashish baxtiga tuyassar boʼldim. Jamoamiz bilan sovrindorlar safidan joy olmaganligimizdan hech ham afsuslanmadik. Chunki asosiy maqsadimiz – ota-onamizga, xalqimizga, Vatanimizga munosib farzand boʼlish. Oʼylaymanki, “Shunqorlar” harbiy-sport oʼyinlari ana shu maqsadimizni amalga oshirishda biz yoshlarga imkoniyat yaratib bermoqda. Eng asosiysi – har safar jonajon Oʼzbekistonimizning turli hududlaridan kelgan tengqurlarimiz bilan doʼstlashib, safimizni yanada kengaytirib bormoqdamiz. Ha, aytgancha, musobaqaning



harbiy-vatanparvarlik yoʼnalishida sovrindor boʼldim.

Mirkamol AHMEDOV, “Shunqorlar” jamoasi aʼzosi (Toshkent viloyati):

– “Vatanparvarlik – oliy maqsadim!”. Bu shiorni musobaqaqada qatnashgan har bir ishtirokchi har xil koʼrinishda isbotlab berdi. Oʼylaymanki, bugun 14 jamoaning har bir aʼzosi “Shunqorlar” harbiy-sport oʼyinlari gʼolib va sovrindorlari boʼlishdi. Eʼtibor bergan boʼlsangiz taqdirlash marosimida sovrindorlarning chiqishini barcha jamoa birdek olqishlab turdi. Musobaqaning tantanali yopilish marosimi bu qadar hayajonli daqiqalarga boy boʼlishini kutmagandim. Oʼzbekistonda xizmat koʼrsatgan artist Marat Hakimov

“Men gʼolib!” va “Bayrogʼing boshingda hilpir” qoʼshiqlarini ijro etganda butun jamoa bilan birgalikda qoʼshilib kuyladik.

Hissiyotlarga berilib, raqsga tushdik. Bu hissiyot haqiqiy vatanparvarlik hissiyoti edi. Ana shu hissiyot ogʼushida granata

uloqtirish boʼyicha eng yaxshi natija koʼrsatganimni ham unutdim.

Asilbek MUHAMMADIYEV “Humo” jamoasi (Samarkand viloyati):

– Jamoamiz viloyat bosqichida barcha raqiblarni katta ustunlik bilan ortda qoldirib, asosiy musobaqada ikkinchi marta qatnashdik. Oʼtgan yili sovrindorlar safiga kirishimiz uchun biroz imkoniyatlarmiz yetmagandi. Bu safar vazifa uddalandi. Uchinchi oʼrinni qoʼlga kiritishimizda jamoaning barcha aʼzosi birdek ter toʼkdi. Xolmurod Boʼtayev turnikda tortilish boʼyicha barcha ishtirokchilar orasida eng yaxshi natija koʼrsatgan boʼlsa, estafeta bahsida qatnashgan sherigim Orifjon Qudratov bilan birgalikda raqiblarni ortda qoldirdik. Musobaqa davomida murabbiylarimiz – Shokir Roʼziqulov hamda Vohidjon Yoʼldoshev ruhan qoʼllab-quvvatlab turganini alohida taʼkidlamoqchiman. “Shunqorlar” harbiy-sport oʼyinlari biz kabi yoshlarni yangi-yangi gʼalabalar, yutuqlar sari olgʼa boshlaydi. Biz esa hamisha yurtimizning munosib fardandlari boʼlish yoʼlida shijoatimizni namoyish etishdan toʼxtamaymiz.

Asror ROʼZIBOYEV,
«Vatanparvar»

Eng yaxshi kitobxon harbiy oila

**БАХТИЁРЖОН ОИЛАСИ –**

Китоб – билим манбаи, ақлнинг қайроги. У одамзод қалбини ёритади, руҳиятини тарбиялади. Инсоннинг руҳий-маънавий камолотини таъминлашда китобчалик кучли құдратта эга восита йўқ. Шунинг учун ҳам маърифат пешволари, аҳли донишлар китобнинг фарзанд тарбиясидаги аҳамияти бекиёс эканлигини таъкидлаб, инсониятни кўпроқ китоб ўқишига, ундан илму одоб сирларини ўрганишга чорлаб келишган.

**КИТОБХОНЛАР АЪЛОСИ**

Униб-ўсиб келаётган ёш авлоднинг қалбіда адабиётга, китобга меҳрни, қизиқиши оширишда оиланинг ўрни, ота-онанинг ибрати бекиёс. Зеро, тарбиянинг барча мезон ва үнсурлари оиласа шаклланғани каби китобга меҳр ҳам айнан ушбу бўғинда куртак ёзади. Ҳар йили Мудофаа вазирлиги тизимида анъанавий равиша ўтказиб келинаётган «Энг яхши китобхон ҳарбий оила» кўрик-танлови шундай эзгу мақсадга хизмат қилган ҳолда, кучли билим соҳибларини бир даврага жам қиласди.

Бу йилги танловнинг якуний босқичи Зангиота туманида жойлашган ҳарбий қисмда ўтказилди. Унда бир-биридан зукко ва билимдон 7 оила учта шарт бўйича ўзаро куч синашди. Мазкур кўрик-танловга беллашувларни холисона баҳолаб бориш мақсадида нуфузли ҳакамлар ҳайъати таклиф этилди.

«Таништирув» деб номланган дастлабки шартда иштирокчилар бадиий чиқишлиар орқали, яъни қайсиdir оила шеърий, яна қайсиdir оила мусиқали тарзда ўзларини таништиридилар. Уларнинг беллашувуга катта тайёргарлик кўргани биринчи шартдаёқ кўзга яққол ташланди.

Иккинчи-«Биз китобхон оиласиз» шарти танловнинг янада қизиқарли ва жўшқин бўлишини

таъминлади. Ушбу шартда иштирокчилар ўзлари севган шоир ва адиллар ижодидан шеър, монолог, ғазаллар айтишди. Мавзуга доир видеоролик ва лавҳалар бадиий чиқишлиарни тўлдиради. Эътирофга сазовор жиҳати, иштирокчилар шартни бажариш жараённада актёрлик маҳорати билан образга кириб, нотиқлик қоидаларига тўлиқ амал қилишиди.

Учинчи шарт ҳақиқий билимлар беллашуви бўлди. Унда қатнашувчилигарга буюк мутафаккирлар, ўзбек ва жаҳон адабиётининг йирик намояндлари асарлари бўйича саволлар берилди. Билимдонларнинг ўзбек ва жаҳон адабиётидан қанчалик хабардор эканликлари, ақлий заковатлари мана шу шарт орқали яна бир бор синовдан ўтказилди.

Баҳслар қизғин ва қизиқарли кечди. Гар-

чи ҳар бир оила ғолиблик учун давогарлик қилган бўлса-да, танлов сўнгидаги энг кучлилар ғалаба қозонди.

Шундай қилиб, биринчи ўринни – шартнома бўйича ҳарбий хизматчи оддий аскар Бахтиёржон Шаматов оиласи (*Марказий ҳарбий округ*); иккинчи ўринни шартнома бўйича ҳарбий хизматчи оддий аскар Шавкат Ҳалилов оиласи (*Шарқий ҳарбий округ*) ва лейтенант Рустам Гафуров оиласи (*Тоифаланган обьектларни кўриклиш қўшинлари*); учинчи ўринни эса катта лейтенант Санжар Сафаров оиласи (*Ҳаво Ҳужумидан мудофаа қўшинлари ва Ҳарбий ҳаво кучлари кўмандонлиги*) эгаллади.

Ғолиб ва совриндорлар диплом ҳамда қимматбаҳо совғалар билан тақдирланди.

**Шерзод ЭГАМБЕРДИЕВ,
«Vatanparvar»**



Keling, kitob o'qymiz!

АБДУЛЛА ҚАҲХОРНИНГ



«Майиз емаган хотин»и ва бошқалар

Биз Абдулла Қаҳхор ҳикояларини ўқиб үлғайдик. Ростини айтсам, мактабда унинг «Синчалак» асарини мажбуран ўқиганман. Мажбуриликдан, келажакда университетда ўқиш ниятим борлиги учун иншо ёзганман, шу асардан. Яна «Сароб» романы ҳам бор. Аслида болаликдан китобсевар эдим. Аммо шу асарларни қизиқиб ўқиганман, десам ёлғончи бўламан. Ўқувчилик йилларим ўқилиши керак бўлган асарлар эди, булар. Ушбу фикрлар адабиётшунос эмас шунчаки китобсевар бир инсоннинг хотираси, мулоҳазалари эканини унумтманг.

Адабнинг ҳикоялари... Улар энди ҳар бири алоҳида олам-да!

Ўқиймиз: «Яқин икки ҳафтадан бери кўз очирмаётган кузак шамоли яйдоқдаражтлар шохидаги чийиллади, ғувиллади, томларда вишиллади, ёпик эшик ва дарчаларга бош уриб уф тортади. Бундай кечаларда одамзод кўймижоз фуж бўлиб ва ниманидир кутиб жимгина ўтириши хоҳлаб қолади.

Олимбек додхонинг саккиз хотини катта кундош Нодирмоҳбегимнинг уйига йиғилиб, сандал атрофида ўтиришар эди. Додхо ҳар кеча таровех намозидан кейин ҳалқага қолар эди, бу кеча эрта қайтди. Ҳамма тўзиidi: хотинлардан бири унинг салласини олди, бири чакмонига қўл узатди, бири маҳсисини тортгани чоғланди... Кундошларнинг энг кичиги – бу даргоҳга тушганига беш ойгина бўлган келинчак – ганжировонлик Унсиной чилим солиб туттиди. Додхо чилимни бир марта, лекин жуда қаттиқ тортиди-ю, ясов тортиб турган хотинларига эътибор қилмай, тўрга ўтди ва дарчани жиндаккина қия қилиб, бир кўзи билан ташқарига қаради. Шамол гоҳ оч бўйдай увиллар, гоҳ ўлим чангалига тушган мушукдай пихиллар, вагиллар, ҳеч нарса-ҳеч нарса кўринмас эди».

Ҳа, ха, топдингиз, бу «Даҳшат» ҳикояси. Табиат тасвири кишини ҳайратга солади. Кўз ўнгингизда кузакнинг дилгир манзаралари пайдо бўлади. Ёзувчининг ҳикоясини ўқиш барабарида уста рассом асарини ҳам кузатаётган каби ўзингизни хис қилгансиз, тўғри эмасми?

Бугун ёшлар китоб ўқимай кўйди, деган маломатларни эшитганимда ўйланаман: агар бизнинг болалигимизда ҳам турли телеканаллар, кўлимизда шапалоқдек телефонлар бўлганида китобларга қайрилиб қарабариди?! Жавоб бериш кийин. Телефонларда исталган асарни топиб ўқишидек улкан имконият ҳам бор. Шундай бўлса-да, янги асар ўқидим дея тўлқинланиб ўртоқлари билан таассуротларини бўлишган ёшларни деярли кўрмайман.

Айни китобларни англаш ёшида ҳаётимизнинг катта қисми пахта далаларида кечган. Пахта жуда мاشақатли ва оғир меҳнат билан етиширилади. Ана шу оғир меҳнат орасида овунчимиз қоронғиликдаги нур каби китоблар бўлган. Шеълар ёд ўқирдик, ўқиган асарларимизни ўртоқлашар эдик. «Даҳшат»ни даҳшат билан тинглаганимиз ёдимда, Саодат исмли озғингина дугонамиз топиб келган эди. У ҳикояни ўқиётган дамда бутун олам сукутга чўмгандек бўлган... вужудимиз қулоққа айланаб тинглаган эдик:

«Унсин яна ўтин қидирди, лекин ҳар сафар ўтин қалаганида аланганинг гуркираши, чирсиллаши мудраб ётган арвоҳларни уйғотиб юборишидан кўрқандек, унинг устига ўзини ташлагудай бўлар эди. Ниҳоят кўмғон қайнади. Унсин наридан-бери чой дамлади, куруқ янтоқ ва қамишларга ўт кетмасин учун ўтни тепкилаб ўчириди, ўнг қўлида чойнак ва чап қўлида қўмғон, ўтнинг шуъласидан кўзи ҳануз қамашиб борар экан, бир жойда ер ўпирилиб, чап оёғи тақимигача ботиб кетди ва оёғининг учун юмшоқ бир нарсага теккандай бўлди. Унсин бояги гапни дуодай тез-тез қайтариб, кўрқувни ўзига ўйлатмат-ётган бўлса ҳам, кўнглига «ўликнинг қорниимикин» деган гаплар келди-ю, юраги орзиқиб, оёғини дарров суғуриб олди ва чукурда қолган бир пой кавушини олгани юрак қилолмай маҳсичан кетаверди... назарида ҳамма ўйлар сағаналардан, гўрлардан бошини чиқариб, кетидан қараб тургандай эди. Унсин нима қилишини билмай туриб қолди. Шу аснода каттакон бир сағананинг ичиданми, нарёғиданми аллақанақа бир товуш эшишилди-ю, хаял ўтмай нимадир келиб Унсиннинг елкасига миниб олди, айтидан, бўғмоқчи бўлиб қўл узатди. Унсин кўкрагига ниҳоятда оғир бир нарса билан урилганда кўнгли озиб тентираб кетди-ю, йиқилмади, лекин оёқ узра туриб ҳушидан кетди...»

Озодлик нақадар тотли сўз. Аммо унга эришмоқ қанчалар қийин.

Адаб асарларида эпиграфлардан унумли ва моҳирона фойдаланган. Кўпроқ ҳалқ оғзаки ижоди намуналарини кўллаган. Масалан, «Бемор» ҳикоясида «Осмон узок, ер қаттиқ» мақолини эпиграф сифатида келтирган.

Шундай асарлар борки, улар ҳеч эскирмайди. «Бемор» ҳикояси ҳам шундай. Мазкур ҳикояда ўтмишдан

бир оғрикли, ачинарли воқеа қаламга олинган. Аммо бугун айrim инсонларнинг қарашлари ҳамон ўшаш ўзгармаган. Ишонмайсизми?! Ишонмасангиз табибларга мурожатат қилаётган инсонларни кузатинг. Яқиндагина бирини фош қилдилар. Бу табиб одамларни оғзига тупуриб (қанчалар жирканч...) даволар экан. Уша шарлатан, алдоқчи ҳузурига даво истаб боргандар ҳам кўпчилик экани ачинарлидир. XXI аср. Аммо айримлар онгида ҳеч қандай ўзгариш ўйк.

1936 йилда ёзилган «Бемор»дан **Ўқиймиз:** «Сотиболдининг хотини оғриб қолди.

Сотиболди касални ўқитди – бўлмади, табибга кўрсатди. Табиб қон олди. Бетобнинг кўзи тиниб, боши айланадиган бўлиб қолди. Бахши ўқиди. Аллақандай бир хотин келиб толнинг хипчини билан савалади, товуқ сўйиб қонлади...

Буларнинг ҳаммаси, албатта, пул билан бўлади. Бундай вақтларда ўйғон чўзилади, ингичка узилади».

Адабнинг ҳар бир ҳикояси мукаммал. Унинг ҳикоялари билан танишганимга қадар адаб асарларини зерикарли деб билганим рост. Ҳикояларини ўқиганимда... ўзбек адабий тилининг нақадар бойлиги, жилвалиари, товланишлари, мақоллари, ибораларининг гўзаллигини теранроқ англадим. Ортиқча жим-жималардан холи, қисқа, лўнда сўзлар, кишига кўзгу тутган каби воқеалар сизни ўзига оҳанрабо каби тортиб олади.

Адабнинг яна бир машҳур ҳикояси «Майиз емаган хотин».

Азиз ўқувчи, сиз ҳам ижтимоий тармоқларни кузатасиз, бунга ишонаман. Агар эътибор берган бўлсангиз тармоқларда радикал қарашлар кучайгандек. Ачинарлиси уларнинг кўпчилигини бир мақсад – аёл-қизларнинг кийинишилари бирлаштиради. Ўз қарашларига бошқаларни ҳам мослаштиришга уринишади.

Худди шу мавзуга оид бир расмга кўзим тушди. Эркак қўшни ҳовлига бўйлаяпти. Яна бир қўшни бирорни кига бўйлаётган қўшнининг ҳовлисига бўйлаяпти... Пастда шундай изоҳ берилади: «Бирорнинг номусига кўз тикканинг, пойлаганнинг ўз номуси химоясиз қолади».

Кийиниши билан боғлиқ бир воқеа ёдимда қолган. Қишлоғимизда етмишларни қоралаган қария бор эди. У ҳар куни эрталаб катта йўл

бошига чиқиб, ўтган-кетганларга танбех бериб ўтиради. Айниқса, аёл-қизлар безиллаб қолишганди. Ёши улуғлиги учун муносиб жавоб қайтармасди ҳеч ким. «Бошингда рўмолинг қани, нега шу аҳволда мактабга кетяпсан...» Бу нарсани унтиб ҳам юборган бўлардим, балки... Қариянинг қизи номақул йўлга кириб кетмаганида.

Шундай қилиб «Майиз емаган хотин»дан **Ўқиймиз:** «Мулла Норқўзи ҳар куни бозордан қайтиб самоварга чиқади ва кўнгли тортган одамларни атрофига тўплаб, ярим кечагача шариатдан юз ўгириган хотинлар тўғрисида шундай вайсаб ўтиради; баъзан панжасини ёзиб, ўзи билган оиласаларни санаб чиқади:

–Сотиболдининг хотини дориҳонада ишлайди, ҳар куни мингта одам билан жавоб-муомила қилади: ахир биттаси бўлмаса биттаси кўз қисади-да! Мелиқўзининг хотини автобусда кондуктор, баъзан ярим кечада келади; иши эрта тугаган куни ҳам ярим кечагача юрса, айшини қилса эри билиб ўтириптими? Иzzатилланинг синглиси бўлса артист – халойикқа қараб муқом қилади. Норбутнинг қизи докторликка ўқийди, мингта ошнаси бор дессанг-чи! Эркакларнинг ичидаги юргандан кейин нима бўлар эди! Бўйга етиб қолган қизларини мактабга юборган оталарга ҳайронман... Шулар хотинининг ёки қизининг ўйнашлиқ килиб тургани устига кирса-чи, куръон урсин агар, «бенават» деб чиқиб кетади... Пухта гап шу!

Очиқ хотин-қизларнинг ҳар бир ҳаракатидан мулла Норқўзи бузукликка далолат қиласидан талай белгилар топади. «Етти қават парда ичидага» ўтирадиган ўз хотини эса булар каршисида кўзига фаришта бўлиб кўринади: намоз ўқийди, тўпигидан юқорисини оврат ҳисоблаб, жиякли иштон кияди...»

Гапиргандан не наф, Абдулла Қаҳхор ҳикояларини ўқинг, ўзбек адабий тилига фарзандларингизни муҳаббат руҳида тарбиялашни истасангиз унинг асарларини оила даврасида ўқишни йўлга кўйинг. Ҳар бир ҳикояси сухбат-у сўзларимизга безак берадиган ҳалқ мақоллари-ю, иборалар, теша тегмаган топилмаларга бойдир.

Ҳузурли мутолаалар тилаги билан

Инобат ИБРОҲИМОВА,
«Vatanparvar»

"Vatan bilan ulg'ayar shon-shavkatimiz"



Oна ҳар тонг жигарпорасининг ўлими бесамар кетмаганлигини тан олиб турса-да, бўзлаб-бўзлаб айрилиқдан фигон чекади, азамат ўглини қидиради, согинчдан дир-дир титрайди ...
Кечагина мўйлаби сабза урган, қадди-қомати алпомишдай болажонини ҳарбий хизматга дуолар билан жўннатганди. Уй тўрида у тишлаган патир ҳамон илинганча турибди. Кўзлари порлав, кулганича хайрлашган эди нуридийдаси.

Она ноласи

фарзанди ҳарбийдан қайтмаган оналар тилидан

Ўғлим! Кўзимнинг нури, қалбимнинг қўри...

Сен олим бўлармидинг ё шифокор, балки муаллим... ёки, осмонўпар иморатлар қуриб, йўллар, кўприклар бунёд этармидинг ё сарҳадларимиз дахлсизлигини қўриқловчи жасур ҳарбий бўлармидинг? Балки учувчи ё адолат посбони судъя бўлиб, юртга хизмат қилармидинг? Халқ фаровонлиги, иқтисодиёт барқарорлиги йўлида катта тадбиркор бўлармидинг?..
Ҳақиқат шуки, сен уларнинг вужудида борсан, улар билан яшаяпсан, болам...

Сен севган ёрингга гуллар тутолмадинг, ёр-ёр садолари остида гўшангага киролмадинг, фарзанд қуриб, гўдак исини туёлмадинг, отанг каби фарзандинг учун иморатлар тиклолмадинг. Лекин ўнлаб, юзлаб, минглаб, миллионлаб ватандошларнинг шу бахтга эришуви учун қайноқ қонингни тўқдинг, юртда тўйлар, тантаналар бўлиши учун ҳаётингни ўртага қўйдинг, ёвга юрт эшигини маҳкам беркитдинг.

Берган оқ сутимга розиман!

Сен чақалоқлар «инга»сини, пурвиқор тоғлар сокинлигини, далалардаги ҳосилни, гўзал ва бетакрор табиатимизни сақлаб қолдинг. Мусаффо осмонимиз узра болакайларнинг варраклар учиршиларига, қизалоқлар учайдиган аргимчоқлар бардавомлигига рапна солаётган қора кучларни тўхтата олдинг. Юртда тинчлик, осойишталик ва хотиржамлик ҳукмрон бўлишини таъмин эта олдинг.

Бунинг учун сендан миннатдорман, ўғлоним!

Вужудингга қатъият, мардлик, Ватанга мухаббат ва садоқатдек фазилатларни сингдирганимдан ғурурланаман. Оқ сутим ила қон-қонингга бориб етган орият, жасорат, куч-қудрат сени мангулика даҳлдор қилди.



Ватан ҳимоячиси деган буюк номни тўла оқладинг, болам!

Сен Ватан билан улғайдинг ва шу Ватан сени шон-шавкатга буркади. Демак, сен ҳаётсан, сен борсан, Ватан деган ҳар бир каломда яшамоқдасан! Қуролли Кучларимиз құдратида, ҳарбийлар салоҳиятида, беғубор осмонимиз узра қанот қоқаётганды «кумуш қүшлар»да сени кўраман, сенла фахрланаман.

Сен мардлигинг, жасоратинг билан муқаддас ва улуғ Ватанга қўшилдинг, ҳеч ўчмайдиган, йиллар ўтса-да, тобора ёрқин бўлиб борадиган, Ватан кўксиди абадий порлайдиган нурга айландинг!

Лек бағримга босолмайин куяман, ҳасратингда девонадек юраман...

Тинчлик дея жондан кечган болам-а...

Тушларимга киргин...

**Ўқтамхон АКБАРОВА,
«Дангар» газетаси бош мұхаррири**

Ватан, бу – умримизнинг мазмуни, ҳаётимизнинг маъносидир. Ватан, бу – бетакрор ифорлари билан дилингни сархуши қилган меҳр сарчашмаси, димогингга ором берган турфа гуллару боз-рөглар. Ватан, бу – ота-боболаримизнинг хоки ётган мұқаддас тупроқ.

Бир сўз билан айтганда, Ватан – биз эъзозлайдиган жамики қадрли нарсаларнинг макони. Инсон улғайгач, меҳнат қилиб, ота-онасиға нон-насиба олиб келганидек, Ватанини севган ориятли фарзанд унга беминнат хизмат қилади, гўшаларини обод қилади, ёмон кўзлардан асрайди. Яхши ниятли бундай одамлар ота-боболарининг хоки ётган тупроқни оёқ ости қилинишига мутлақо йўл қўймайди, ширин жонини ҳам аямасдан мустаҳкам иймон ила юртни ҳимоя қилади.

Ватан учун жон фидо қилган ўғлонлар... уларнинг жасоратларини таълим муассасаларида ёшларга, юртимиз эгаларига намуна қилиб кўрсатишимиш даркор. Зоро, бундай жасур, мard ва ботир инсонлар хотираси

уларда Ватанга бўлган садоқатини, мұхаббатини, иродасини мустаҳкамлайди.

Мен муддатли ҳарбий хизматни чегара қўшинларида ўтадим. Хизмат давомида Ватан ҳимоячиси, айниқса, чегарачилар зиммасида нечоғли улкан масъулият борлигини ҳис қилдим. Устоз офицерлардан ҳарбий қасб сабоқларини ўргандим. Қаҳрамон ақаларимиз, жасур посбонлар ҳақидаги ҳикояларни эшидим, улардек бўлишга ҳаракат қилдим.

Улардан бири чегарачи марҳум капитан Ермек Ўзбековдир.

1994 йилнинг 23 февраль куни капитан Ермек Ўзбеков жанубий сарҳадларимизни бузуб киришга ҳаракат қилган жиноятчилар тўдасини таъқиб қилади. Муқаддас сарҳадларимизни ҳимоя қи-

Фоят улуғ иши бўлар эди

лишдаги қуролли тўқнашувда жасорат намуналарини кўрсатади. Уларнинг йўлини тўсади, қадамини кесади. Аммо бу воқеада у чегара бузғунчилари томонидан узилган ўқдан ҳалок бўлади.

Ермек Ўзбеков мамлакатимиз чегарасини қўриқлашда кўрсатган матонати, аҳдига содиқлиги, мардлиги ва жасорати учун Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1994 йил 13 июндаги фармонига биноан, вафотидан сўнг «Жасорат» медали билан тақдирланди, унга муддатидан олдин майор ҳарбий унвони берилди.

Қисқа умри мобайнида авлодларга буюк намуна кўрсатган бундай ўғлонлар ҳаётини, кўрсатган жасоратини, ватанпарварлик туйғуларини ёш

авлод қалбига сингдирис учун улар ҳақида телекўрсатувлар, радиоэшиттишлар, ҳужжатли фильмлар кўпроқ тайёрланиши керак деб ўйлайман. Яна бир таклифим борки, умумтаълим мактабларида Ватан ва халқ учун жон фидо қилган қаҳрамонлар ҳақида дарслик ишлаб чиқилса ва ёшларга жасорат дарслари ўтилса, фоят улуғ иш бўлар эди. Чунки бу дарсда сабоқ олган ёшлар ҳарбий хизматга ўзгача меҳр қўйиб, мустақиллик, озодлик қадр-қимматини теран англаб етар ва ўзларига зарур билим ва кўниқмаларни олар эдилар.

**Шоҳрухбек ЗОКИРОВ,
Кўқон давлат педагогика
институти талабаси**

Armiya va yoshlar

BO'LG'USI YURT

himoyachilarining va'dasi

Poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i" majmuasi qalblarida quvонch hissini opichlagan ota-onalar, yuragida faxr va mas'uliyat tuyg'usi jo'sh urgan o'g'il-qizlar bilan gavjum bo'ldi.



toifadagi sport ustasi Bunyod Qo'shoqov yig'ilganlarni hozirgi paytda katta-katta yutuqlarga erishgan mazkur klubning sobiq bitiruvchilari bilan ham tanishtirdi.

Qo'l jangi bo'yicha chiqishlar, vatanparvarlikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar ishtirokchilarning ko'nglidagi his-hayajonni yanada alangalatdi.

Kapitan Aziz NORQULOV

U yerda poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 153-, Chilonzor tumanidagi 232- hamda Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi 38-umumta'lim maktablari qoshida tashkil etilgan "Olimp-lider" maxsus harbiy sport klubi 250 nafar tarbiyalanuvchisining "Vatanga qasamyod" qabul qilish tadbiri bo'lib o'tdi. Beixtiyor ko'nglimizdan kechadi, bo'yи stolga arang yetib, imzo chekayotgan yigitlar kun kelib ofitser va generallarga aylansa, ne ajab.

- Farzandimga 3-4 xil maktablarni tanlash imkoniyatini berdim. U hech ikkilanmasdan mazkur yo'naliishni tanladi. Harbiy xizmatda barcha sport turlari mujassamlashgan, deya izohladi tanlovini. Bu meni ham faxrlantirdi, - deydi qiziqchi Valijon Shamsiyev.

"Olimp-lider" maxsus harbiy sport klubni rahbari zaxiradagi ofitser, xalqaro

oshlari agentligi o'zaro hamkorlikda joylarda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda yagona fikr va yondashuvni ishlab chiqish, yoshlar yetakchilariga amaliy yordam berish maqsadida seminar mashq'ulotlarini o'tkazmoqda.

"Mahallalarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: mavjud muammolar va ularning yechimi" deb nomlangan seminaring navbatdagisi Qurolli Kuchlar akademiyasida Toshkent shahri Uchtepa hamda Sergeli tumanlarida faoliyat yuritayotgan yetakchilar bilan o'tkazildi. Unda yetakchilar Qurolli Kuchlar akademiyasi, Toshkent harbiy okrugi, Toshkent shahar mudofaa ishlari boshqarmasining tarbiyaviy va mafkuraviy yo'naliishda ko'p yillik tajribaga ega ofitserlardan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. So'zga chiqqanlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi usul va uslublari haqida gapirishar ekan, "Temurbeklar", "To'maris malikalari", "Shunqorlar", "Yosh chegarachi", "Yosh qutqaruvchi", "Quvnoq startlar", "Yosh huquqshunos", "Yosh saylovchi", "Yosh deputat" tanlovlarini hamda "Men ham askar bo'laman" aksiyalari va harbiy qismrlarga sayohatlarni tashkil etish

VATANPARVARLIK

tuyg'usiga asoslangan

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida faxriylar, o'quvchi-yoshlar va kursantlar ishtirokida "Milliy iftixor, burchga sadoqat va jasorat" tamoyili asosida mahorat darsi o'tkazildi. Ushbu madaniy-ma'rifiy tadbirda uzoq yillar milliy armiyamiz saflarida xizmat qilib, mamlakatimiz mudofaa qudrati va salohiyatini yuksaltirish yo'lida amalga oshirilgan izchil islohotlarda jonbozlik ko'rsatgan faxriylar ishtirok etishdi.



Bahrom ABDURAHIMOV

Tadbirda birinchi bo'lib so'z olgan iste'fodagi general-major Feruz Usmanov mustaqilligimizning ilk yillarda milliy armiyamizni shakllantirish yo'lidagi o'ziga xos qiyinchiliklar, muammolar va erishilgan yutuqlarga to'xtalib o'tdi. "Milliy armiyaning tashkil topishi, shakllanishi, qad rostlashida ishtirok etganimiz bizning faxrimizdir!" degan so'zlarni g'urur bilan ta'kidladi.

Faxriy ustozlardan iste'fodagi polkovnik Abubakir Dehqonbayevning Germaniya, Afg'oniston, Afrika davlatlari bilan bog'liq xizmat xotiralari yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. U yoshlarni vatanparvarlikka chaqirar ekan, yoshlik chog'lardan oq katta yutuqlarga erishgan sohibqiron Amir Temur hayotidan misollar keltirdi.

Iste'fodagi polkovnik Murodjon Gafurov bosib o'tgan harbiy hayat mashaqqatlarini yoshlarga qiziqarli tarzda so'zlab berdi. Yoshlarni xorij tillarini o'zlashtirishga da'vat

etdi. Mehmonlar yoshlarga: "Siz, lavozimlar, orden va medallar uchun yugurmang, shunday xizmat qilingki, bular sizning orqangizdan yugursin!", degan so'zlarni ta'kidlab o'tdi.

Suhbat davomida faxriylar yoshlarni qiziqtirgan barcha savollarga e'tibor ila javob qaytarishdi. O'z navbatida kursantlar va o'quvchi-yoshlar so'z olib faxriy ustozlarga o'z minnatdorchiligini izhor etdi.

Kursant Sharof Hikmatullayev O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov qalamiga mansub "O'zbekiston – Vatanim manim" nomli she'rini yod aytib davraga o'zgacha ruh baxsh etgan bo'lsa, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Farrux Azizov tomonidan ijo etilgan sho'x qo'shiq barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Madaniy-ma'rifiy tadbir so'ngida ustoz faxriylarga sovg'alar taqdim etildi.

Zulfiya YUNUSOVA,
«Vatanparvar»

YETAKCHILAR

bilan seminar



Joriy yil boshida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilingan edi. Unga ko'ra, mamlakatimizning eng chekka hududlarida ham yoshlar bilan ishslashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishslashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilgan edi. Ularning faoliyat yo'naliishlaridan bri

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish etib belgilangandi. Shu kunlarda Mudofaa vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi o'zaro hamkorlikda joylarda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda yagona fikr va yondashuvni ishlab chiqish, yoshlar yetakchilariga amaliy yordam berish maqsadida seminar mashq'ulotlarini o'tkazmoqda.

"Mahallalarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: mavjud muammolar va ularning yechimi" deb nomlangan seminaring navbatdagisi Qurolli Kuchlar akademiyasida Toshkent shahri Uchtepa hamda Sergeli tumanlarida faoliyat yuritayotgan yetakchilar bilan o'tkazildi. Unda yetakchilar Qurolli Kuchlar akademiyasi, Toshkent harbiy okrugi, Toshkent shahar mudofaa ishlari boshqarmasining tarbiyaviy va mafkuraviy yo'naliishda ko'p yillik tajribaga ega ofitserlardan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. So'zga chiqqanlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi usul va uslublari haqida gapirishar ekan, "Temurbeklar", "To'maris malikalari", "Shunqorlar", "Yosh chegarachi", "Yosh qutqaruvchi", "Quvnoq startlar", "Yosh huquqshunos", "Yosh saylovchi", "Yosh deputat" tanlovlarini hamda "Men ham askar bo'laman" aksiyalari va harbiy qismrlarga sayohatlarni tashkil etish

F. ERGASHEV

"DAVLAT BAYROG'I -

millat timsoli"

O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligining alohida qo'riqlash va xizmat ko'rsatish bazasida "Davlat bayrog'i – Vatan timsoli" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil qilindi.

Unda so'zga chiqqan mayor R. Razzaqov tadbir ishtirokchilariga o'zbek millatini bir bayroq ostida birlashtirgan buyuk bobolarimizning hayat yo'llari va o'zbek millati bayrog'ining tarixi, davlat bayrog'ining har bir fuqaro, ayniqsa, harbiy xizmatchilar uchun Vatan, mustaqillik timsoli sifatida juda katta ahamiyat kasb etishini aytdi. Tadbirni o'z ma'ruzasi bilan davom ettirgan Toshkent davlat yuridik universiteti filologiya fanlari nomzodi dotsent R. Qo'chqorov harbiy xizmatchilarga O'zbekiston davlat bayrog'i to'g'risidagi qonunning mazmun-mohiyatini tushuntirib, tadbir ishtirokchilarini qiziqtirgan savollariga javob berdi. Tadbirning ikkinchi qismi G'. Choriyev rahbarligidagi Toshkent shahri madaniyat markazi "HUMO" ansamblining vatanparvarlik ruhidagi kuy-qo'shiqlari bilan davom etdi. Tadbir yakunida mehmonlar harbiy qism qo'mondonligi nomidan tashakkurnomalar topshirildi.

Mayor D. SULTONOV



Қорақалпоқ адабиётининг
йирик вакили
Бердимурод Қарғабой
ўғли Бердақ ижодидан
баҳраманд бўлмаган
ўқувчи бўлмаса керак.
Бердақ 1827 йили Мўйноқ
туманининг Оққалъа
овулида туғилиб,
1900 йили вафот этган.

Бердақ қорақалпоқ адабиётининг асосчиси. У 20 мингдан ортиқ мисраларни достону шеъларга тизиб, қорақалпоқ мумтоз адабиётига улкан хисса қўшган шоир. Бердақ ижодиёти ўз замонаси, халқ дарди, орзу-умидларини шеърий мисраларга жо этган. Шоирнинг ижоди бугун адабиёт вакилларига чинакам мактаб вазифасини ўтамоқда. Унинг мероси нафақат адабиёт ихлосмандларини, балки тасвирий санъат олами вакилларига ҳам ижодий илҳом бағишлаб келмоқда.

Ҳа, қорақалпоқ тасвирий санъатида Бердақ ижодини рангларга кўчирган кўплаб рассомлар бор. Жумладан, Базарбай Серекеев, Муратбек Худайбергенов, Сарсенбай Байбосинов, Барликбай Айтмуратов, Ажинияз Худайбергеновларнинг асарларида, айниқса, Бердақ шеърияти нафис чизгиларда намоён бўлган.

Келинг, бугун биз сиз билан Бердақнинг «Олти қиз» номли шеърини рангтасвир асарлардаги талқини ҳақида сўзлашсак.


«Олти қиз» номли шеър ҳақида жуда кўпчилик билса керак. Унда нўноқ аравакашнинг нотавонлиги оқибатида араванинг жарликка қулаши ҳақида сўз боради. Шеърни мутолаа қилган инсон агар рассом асарлари орасида «Олти қиз»га бағишинган асарга кўзи тушиб қолса, ҳеч мубоблағасиз олти қизнинг тақдиридан сўз очадилар. Картинадаги бадий образларни шеърият билан ўйғуллаштириб, эстетик завқ оладилар. Мен «Олти қиз» шеърини ўқиб чиқмасидан бурун, илк маротаба бу рангтасвир асар билан танишган эдим. Бердақ номидаги қорақалпоқ адабиёти давлат музейи (аввалги номи Бердақ миллий музейи)нинг учинчи қаватида Қорақалпоғистон халқ рассоми Барликбай Айтмуратовнинг Бердақ ижодига бағишинган деворий сурати бор. Асар 2000 йили музей очилиши арафасида давлат буюртмаси асосида яратилган. Асар марказида Бердақ образи ва уни қуршаб олган асарлари бирма-бир

ОЛТИ ҚИЗНИНГ ҚИСМАТИ

кўз олдингизда кино тасмасидай ўта бошлайди. «Аҳмоқ пошшо», «Айдосбий» ва «Олти қиз», «Амангельді» сингари миллийлик тароватини улашган ранглар билан безатилган деворий сурат музейнинг бадий қийматини ошириб, томошабинни адабий мұхитта олиб киради. Шундай қилиб рассом ўз билими, бой тажрибаси орқали авлодларга адабиёт ва тасвирий санъат гармонияси или яратилган ўлмас асарни тухфа этади.

«Олти қиз» номли рангтасвир асар қорақалпоқ тасвирий санъатига муносиб ҳисса қўшиб келаётган ёш рассом Ажинияз Худайбергенов ижодида ҳам учрайди. Зеро Ажинияз ўз ижод намуналарини яратища адабиётга, Бердақ шеъларига тез-тез мурожаат қиласди. Бир китобда ўқигандим. Дунёда энг кучли театр саҳнаси бу – инсоннинг мияси экан. Унинг дунёқараси қанчалик бой ва теран бўлса, фикрлаши, тафаккури ҳам шунчалик кенг бўларкан. Бу эса ўз навбатида китоб мутолааси билан боғлиқ жараён. Ажинияз хаёлотида жам бўлган театр эса бошқа рассомлардан фарқли равишда, декоратив услубда матога кўчади. Бунинг замирида эса рассомнинг адабиётга чексиз меҳри мужассам.

Рассомнинг 2017 йилда яратилган «Олти қиз» рангтасвир асари мато, мой бўёқда ишланган бўлиб, 45x60 ҳажмга эга. Ҳозирда бу асар Ўзбекистон бадий академияси Қорақалпоғистон бўлими кўргазмалар саройи фондининг нодир асарлар туркумидан ўрин олган. Асарни томоша қилган инсонда ботиний туйғулар титрофуни ҳис этмай қол-



майсиз. Сабаби, асарни томоша қилганингиз сари илоҳийлашиб бораверади. Аравада ўтирган олти қиз фаришталар сиймосида гўё нур таратаётганек бўлади. Аслида бу нур орқали рассом – орзулари осмон бу қизлар армон билан бу дунёни тарқ этгани ҳақида «сўзлайди». Агар тасвирга дикқат билан разм солсангиз, қизларнинг пичир-пичир овозини ҳам эшитасиз. Рассомнинг маҳорати ҳам айнан мана шунда: асардаги образларга динамика тақдим эта олган ва томошабинга мудҳиш фожиадан гўзал тасвир яратган. Қизил, кўк, қора рангларнинг умумий гаммаси асар «ҳаво»сини ҳис этишингизга кўмак беради.

Бибиайим, Гулайим, Моҳийда, Арухон, Гулимхан, Равшан, Мехриён, Қўшимбат тоз (Қўсимбет кал) – булар шеърнинг қаҳрамонлари. Аравакаш Қўшимбат тоз бошчилигига тўйга кетаётган қизлар шоирнинг таърифича, хушчақчақ, ўйин-кулги билан ўйлга отланган. Қорақалпоқ миллий урф-одатларига кўра, ҳайит маракага ўйл олган қизларга янгалар бошчилик қилас экан. Бердақ шоир ҳам шеърида қадриятларни тараннум этиб, Гулайим образини миллийлаштиради. Қорақалпоғистонлик рассомлар томонидан яратилган шу мавзудаги асарларда ҳам янга образи миллий либосга бурканган ёши каттароқ аёл

сиймоси билан ифодаланган. Барликбай Айтмуратовнинг деворий асарида «Гулайим янга» ўйчан тасвиirlанади. Ажинияз асарида эса «янга» аравакашга мурожаат этაётгандек таассурот қолдиради.

Қўшимбат тоз образи ҳақида эса шоирнинг ўзи шундай таъриф беради:

Арва ҳайдаган Қўшимбат тоз,
Тентакликда ақли ҳам оз.

Рассом асарларида Қўшимбат тоз енгилтак аравакашни эслатади. Сарсенбай Байбосинов эркакни эшак устида кетаётган кал образида, рангтасвир эса пуантилист услубида яратди.

Шу ўринда, пуантилист услуби ҳақида ҳам тўхталиб ўтсак. Пуантилизм услубидаги асарлар нуқтали рангтасвир асарларига нисбатан ишлатилади. Асарда тасвир нуқталар орқали бир-бирига яқин ҳолда, тўртбүрчак, думалоқ ёки бирор чўзилган ҳолда матога туширилади. Асардан узоқлашганингиз сайин ундаги нуқталар бир-бирига ўйғуллашганини кўрасиз. (Бу ижодий услугуни франциялик Жорж Сёра ихтиро қилган. Бундай полотноларда одатда ёрқин, тоза ранглардан фойдаланилади).

Бердақ шоирнинг бу шеъри ўз даврида муҳим воқелик саналган, десам адашмаган бўламан. Олти қиз ва Қўшимбат кал орқали шоир инсоннинг ҳар қандай ножӯя ҳаракати қанчадан-қанча инсонлар умрига зомин бўлиши мумкинлигидан огоҳ этади. Шундай қилиб асар Қўсимбет калнинг енгилтаклиги оқибатида араваю аравадаги йўловчиларнинг ҳам жарликка қулагани билан якун топади. Шоир ўз шеърида буни қуидагича баён этади:

Ёмон арва бориб-қайтиб,
Қизларни бексо кўзгатиб,
Жалатой тоз қўшик айттиб,
Йўлсиз юриб кетган экан.
Кимларнинг кетиб есери,
Йигитчиликнинг асари,
Жалатой тознинг касери
Шул қизларга теккан экан.

**Шоҳиста АБДУРАҲМОНОВА,
санъатшунос**

Matonat maktabidan maktub

СОФИНЧЛИ САЛОМЛАР


Муддатли ҳарбий хизматни ўташ, ҳар бир йигитнинг Ватан олдидаги бурчидир. Матонат мактабини ўтаган ўғлон ўзгача иштиёқ ва жўшқинлик хиссини тўйши табиий. Мен талабалик даврини суриб юрган бир пайтда, энг яқин дўстларимдан бири армияда. Унинг исми Ботир. Дўстимни соғиниб, хат ёзгандим. Орадан вақт ўтиб, жавоб олдим. Сиз азизларга кўнглимиздан чиқсан битикларни ҳавола қўлмоқчиман.

ДЎСТИМГА МАКТУБ

Ассалому алайкум, қадрдон дўстим Ботиржон. Соғлиқларинг яхшими? Хизматлар билан қийналмаяпсанми?

Эҳ, дўстим, ростини айтсан сени жуда соғиндим. Мактаб пайтларни, дарсдан қочишлиарни, шўхликлар-у ҳазилларни кўп кўмсайман. Ўйлайманки, сен ҳам буларни эслайсан. Математика дарсидан қочиб, мактаб стадионида бирга спорт билан шугулланардик. Сен мендан анча бақувват эдинг. Атайнин кичик турникка осилиб олардим, сен эса катта турникда ҳам мендан кўп тортинардинг.

Фақат хурсанд бўлиб кетма мени мақтаяпти деб. Ҳазил дўстим, ҳазил. Айттанча, дарсдан қочиб бирга шугул-



ларни, ота-онамни жуда соғиндим. Бу ҳам кичик бир синов, насиб қилса эсон-омон, ёруғ юз билан ўтиб оламиз.

Ҳа, математика фанини эслатма. Анча оғирлик қилган. Секингина қочиб, спорт майдонида шугулланишнинг гашти бошқача эди. Ҳамма нарсадан кўра спортни яхши кўрардим, буни сен яхши биласан. Буларнинг барчаси армияда катта ёрдам беряпти. Хайрият, сендей дўстим бор.

Бу ерда китоб ўқиши учун ҳамма шаритлар бор. Хоҳлаган китобингни топсанг бўлади, муаммо йўқ. Дўстим инсон учун энг яхши совға, энг яхши дўстлардан бири бу – китоб. Инсон хаётдан топа олмаган саволига мукаммал жавобларни китоблардан топади.

Яна бир бор катта раҳмат. Ота-онамга номимдан салом айт. Уларни роса соғиндим. Улар менинг давлатимдир. Яна хат ёзаман.

Чин дўстинг БОТИР.

ЎзМУ талабаси
Жасур ҚУТБИДДИНОВ оқقا кўчирди.

УЗУН СОЧЛАР ИЛА КЕСИЛГАН БАХТ

– Опа, сизга роса ҳавасим келяпти, жуда чиройлисиз, – Бинафша күзгуга ўзини солаётган Муқаддамга күзлари кувнаб термилди. – Қани энди, менинг соchlарим ҳам сизникidek узууун бўлса.

– Ҳали ёшсан, парвариш қилсанг, албатта, бўлади, – күзгуга қоматини хиёл ўгириб, этагини ўпид турган тим қора соchlарига нозланиб қараб қўйди Муқаддам.

– Ёш қизча эмасман-ку, ўн еттига киряпман. Минг ҳаракат қилмай, соchlарим ўсмаяпти.

– Ўсади, сингилжон, ўсади! Намунча, шошмасанг, шундоғам күзга яқинсан, – күзгуга термилган кўйи синглисини тинчлантириди Муқаддам. – Соchlаринг ўсмаса ҳам хафа бўлма.

Чунки узун соchlар аста-секин урфдан чиқиб боряпти. Қанча қизларнинг соchlарини кўрдим, балки, мен ҳам кесарман.

– Опаа, ҳазиллашиб ҳам бундай деманг, – ялинди қайсар опасининг сўзларидан таъсиранган Бинафша. – Бундай гўзаллик ҳаммага ҳам насиб этавермайди. Бу ҳам сизнинг баҳтиңгиз!

– Ўйлаб кўраман! – бенарво жавоб қайтарди у.

– Баҳтим сочимга боғлиқ эмас-ку, тентаквой!

– Эртага сизга ошиқ бўлган йигитдан совчилар келаркан, – суюнчилади Бинафша.

– Аммам йигитни роса мақтади,

эски шаҳардаги обрўли оиланинг ўғли экан, исми Аброр.

– Биламан, қачондан буён мени кузатиб юради. Соchlаримга ошиқ эмиш. Кўрамиз, учрашувга чиққанда у менга ёқармикан!

Совчилар, учрашувлар, совға-саломлар... Қуда-андалик таомилларидан сўнг тўй куни белгиланди. Энг асосийси, йигит билан қиз бир-бирига узукка кўз қўйгандек мос.

Мана, келиннинг ҳовлисида тонг саҳардан карнай-сурнай садолари янгради. Мехмонлар наҳорги ошга кела бошлади. Ҳамманинг кайфияти кўтаринки, кутловларнинг чеки йўқ...

Навбатдаги тўй тадбири кўёвнавкарларни кутиб олиш. Улар учун махсус дастурхон ёзилган. Дастурхонга кўйилган ноз-неъматлар ўзига хос. Албатта, бу тадбир ҳам санъаткорларсиз ўтмайди. Куй-қўшиклар, эзгу тилаклар... Зиёфатдан кейин ёшлар никоҳларини расмийлаштириш учун тантанали равишида ЗАГСга йўл олади. Кейин эса кўёв томонда келин-куёв иштирокидаги катта тўй базми бошланади.

– Кўёв келяпти, кўёвнавкарлар келяпти! – болаларнинг шодон қий-чуви ҳовлини тутди.

– Кўёв етиб келди, сочқилар тайёрми? – шошилди амма-холалар.

– Машшоқларга айтинг, қўшигини бошласин!..

Қадди-қомати келишган Аброр йигитлар даврасида, мусиқа садолари остида кириб келди. Шивир-шивирлар бошланди:

– Кўёвмисан, кўёв экан-да, ўзиям!

– Ҳа-а, «Отабек»дан ҳам чиройли экан.

– Бизнинг «Кумуш» ҳам кам эмас.

– Кўз тегмасин, баҳтли бўлишсин, илоҳим!

– Бизнинг қизларга ҳам шундай йигитлар насиб қилсан!

Зиёфатдан сўнг қизни кузатиш онлари яқинлаши. Йигит бўлажак ёрини ҳаяжон ила интиқ кутмокда. Аёллар Муқаддамни отасининг дуосини олиб бўлгач, кўёв истиқболига олиб чиқишиди. Мана, у эгилиб кўёвга илк саломини берди. Шунда калта кесилган соchlарни ҳарир ёпинчиқ ортидан кўзга ташланди. Кутимаганда Аброр бир қадам ортга чекинди, қўлидаги гулдаста оёқлари остига тушди. «Унинг соchlари... Унинг соchlарига нима бўлди?»..

Кўёвнинг ҳолатини атрофдагилар тушуниб етмай, Аброр терс бурилдию, дўстларининг ҳай-ҳайлашига ҳам қарамай, келиннинг уйини тарк этди...

Йиллар ўтди, Муқаддамнинг баҳти қайта очилмади. У қирқ беш ёшларидан оиласи эркакка турмушга чиқди.



«Кўзмунчоқ»

Ўйинқароқ Гулираъно шомга яқин миттигина кучукча билан кириб келди. Ўзига қолса, уни онасининг кўзи тушмасдан бурун тандир тагигами, ёки бўш турган товуқ катагигами яшириб кўймоқчи эди. Бироқ уддасидан чиқа олмади.

– Буни қаердан топдинг? Биласан-ку, даданг итни ёқтирмайди, – қизига танбех бера кетди Салима опа.

– Даданг келмасидан тезда ташқарига олиб чиқиб ташла.

– Қиз бола кучук бўлгани учун болалар тошбўрон қилаётган экан, зўрга олиб қочдим, – кўзлари жавдиради қизалоқнинг. – Агар чиқариб ташласам, ёмон болалар уни ўлдириб қўяди.

– Майли, бугунча қолсин, – қизининг ялинчиқ нигоҳи Салима опанинг дилини юмшатди. – Аммо суюнма, даданг ҳовлида ит боқишига барибир руҳсат бермайди. Тезда юз-қўлингни ювиб, менга ёрдамлаш, овқат тайёр бўлди.

– Раҳмат, аяжон! – шодлигидан кучукча атрофида қуёндек сакрай бошлади қизалоқ. – Унга «Кўзмунчоқ», деб исм кўйдим. «Кўзмунчоқ» ҳам овқат берайлик...

Гулираъно ялинчиқ чиройли кўзлари, ширин сўзлари, араз ва кўз ёшлари ила кучукчани боқиб олишга дадасини кўндириди.

– Майли, – деди Фозил ака. Аммо бир қатор шартлар кўйди. – Кучук атрофида ҳадеб ўралашавермайсан. Қиз болага ит боқиши ярашмайди, ундан кўра, онанга ёрдамлаш. Каттароқ бўлиши билан ташқаридаги боғимизга олиб бориб кўямиз, ўша ерда боғни пойлаб туради. Кейин бу йил мактабга чиқасан, агар яхши ўқимасанг, кучукни бериб юбораман.

– Раҳмат, дадажон! – меҳр ила отасининг бўйинидан кучди қизалоқ.

– Мен ҳамма ҳарфларни биламан, ўқишини биламан, албатта, яхши ўқийман!..

Орадан бир йилдан зиёд вақт ўтди. Гулираъно бўш қолди дегунча, катталарнинг кўзини шамғалат қилиб, «Кўзмунчоқ»нинг ёнида бўлар, бирга ўйнарди. Кўп ўтмай, «Кўзмунчоқ» худди ўзига ўхшаш кучукчалар туғди. Қизалоқнинг хурсандлигини кўрсангиз эди. Лекин...

– Бир ками итнинг болаларини боқишимиз қолганди, – хуноби ошди Фозил аканинг. – Кучукчалар кўзини очиши билан, кимга керак бўлса, бериб юбор, – тайнинлади хотинига.

– Шу итни йўқ қилмасам бўлмайди.

– Нега? – сергакланди Салима опа.

– Орқасидан итлар келиб, қанча экинларимни пайхон қилди. Туғиши яқинлиги учун зўрга чидаб турдим.

– Нима қилмоқчисиз, узокроқ бирор жойга олиб бориб ташлайсизми?

– Вақтим борми, уни судраб юришга? – хотинини жеркиб берди эркак. – Ана, боғ кўшнимиз Қўчкорвой амакининг ов милтифи бор, отади қўяди. Боғ ташқарисидаги тутнинг тагига кўмиб ташлайман.

– Эрка қизингиз итни қанча яхши қўришини биласизми?

– Итинг йўқолиб қолди, деймиз. Еш бола тез кўнигади.

Орадан икки ой ўтиб, Фозил ака айтганини қилди. Қўчкорвой амаки милтифи билан боқقا кириб келди.

– Мана, ўзингиз кўриб юрган ит! Фақат қизим мактабдан келгунча йўқ қилишимиз керак. У ўйга келган заҳоти боқقا югурди. Отиб ташласангиз, мен тезда кўмиб юбораман.

Қўчкорвой амаки «Кўзмунчоқ»ка таниш бўлгани учун думини ликиллатиб, гўёки меҳмонни қарши олди. «Мехмон» бемалол милфтиғига ўқ жойлади ва ўйноклаб турган итнинг қок пешонасига...

Айни шу пайт боқقا кириб келган Гулираъно гумбурлаган ўқ товушию, қонга беланган «Кўзмунчоқ»нинг ерга қулашига гувоҳ бўлиб улугуранди. Жон берадётган итининг тепасида унга қандай ёрдам беришни била олмай, кўз ёшлари юзини ювиб турган қизалоқ кутилмаганда хушидан кетди...

– Боланинг тана ҳарорати юқори, аммо жиддий касаллик аниқлангани йўқ, – шифохонанинг жонлантириш бўйими ёнида бедор турган Фозил ака билан Салима опага Гулираънонинг ҳолатини етказди шифокор.

– Алаҳисираб, қандайдир «Кўзмунчоқ»ни сўраяпти.

– «Кўзмунчоқ»?! – беҳол деворга суюнди Фозил ака. – Қизимнинг олдида гуноҳкорман, бу хатомини тўғрилашим керак... Итнинг болаларини кимлар олганди? – хотинига умид ила қаради у.

– Қишлоқдаги...

Фозил ака шифохонадан отилиб чиқиб кетди...

– Гўзал қизим, кўзингни очганингга шукур! – Гулираънонинг пешонасидан ўпди отаси. – Қара, сени кўргани ким келди!

Беҳол қизалоқ, кучукчага кўзи тушган заҳоти мамнун жилмайди: «Кўзмунчоғим»...

Boks



Iordaniyada boks
bo'yicha erkaklar va
xotin-qizlar o'rtasida
Osiyo championati
o'tkazildi. O'zbekiston
erkaklar terma jamoasi
qit'a birinchiligining
10 ta medaliga musharraf
bo'lib, umumjamoa
hisobida 1-o'rinni
egallagan bo'lsa, ayol
bokschilarimizdan
uch nafari shohsupaga
ko'tarildi. Ushbu
muvaffaqiyatlarga
Mudofaa vazirligi
Oliy sport natijalarini
rivojlantirish markazi
(MVSM) charm qo'lqop
ustalari ham salmoqli
ulush qo'shishdi.

Iordaniyaning Amman shahrida o'tkazilgan bu galgi qit'a birinchiligidagi 27 ta davlatning 181 nafar erkak bokschisi 13 ta vazn toifasida, 86 nafar ayol bokschisi 12 ta medallar jamlanmasi uchun o'zaro jang qilishdi. Musobaqa qit'a charm qo'lqop ustalarini uchun kelasi yil poytaxtimiz mezbonlik qiladigan jahon championati hamda "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga munosib hozirlik ko'rish va mavjud imkoniyatlarni jiddiy sinovdan o'tkazib, tayyorgarlikni maromiga yetkazish borasida o'ziga xos ko'rik vazifasini ham o'tadi. Zotan, Osiyo championatida g'olib chiqqan bokschilar 1 200, kumush va bronza medal sohiblari 900 hamda 700 reyting ochkosiga ega bo'lishdi. Qit'a birinchiligidagi O'zbekiston erkaklar terma jamoasi to'liq tarkibda qatnashgan bo'lса, ayol bokschilarimiz 10 ta vazn toifasida ringga chiqishdi.

Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Navbahor Hamidova (-66 kg) o'tgan yili Moskva shahrida o'tkazilgan 58-jahon championatida (*SIZM*) bronza medalni qo'lga kiritib, mahoratli ayol bokschi sifatida yurtimiz sport muxlislari e'tiborini qozongandi. Navbahor lordaniyada o'tkazilgan Osiyo championatida yanada samaraliroq jang qildi – barcha raqiblarini mag'lub etdi. Unga finalda Janubiy Koreya vakili Xongeun Choy qarama-qarshi keldi. MVSM bokschisi bu raqibidan ham 5:0 hisobida ustun keldi va Osiyo championligiga erishdi. Bokschi qizimiz muvaffaqiyati sharafiga lordaniya sport majmuasida yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilib, Vatanimiz madhivasi vangradi!

Elshod Rasulov bosh murabbiyligida lordaniyaga borgan O'zbekiston ayollar terma jamoasi a'zolaridan yana ikki nafari qit'a birinchiligi shohsupasiga ko'tarildi. -75 kg vazn toifasida ringga chiqqan hamyurtimiz Sohiba Ro'zmetova finalga qadar bo'lgan barcha janglarini muvaffaqiyatli yakunladi. U hal qiluvchi bahsda ham raqibiga qarshi deyarli tengma-teng jang qildi, biroq yakunda hakamlar hindistonlik Lovlina Borgoxainga ustun kelganligini e'tirof etishdi va Ro'zmetova Osiyo championatining kumush medaliga sazovor bo'ldi. Eng yengil (-48 kg) vazn toifasida rinqqa



YİĞİTLARIMIZ QIT'A MIQYOSIDA TENGSİZ!

chiqqan bokschimiz Farzona Fozilova esa qit'a birinchiligidan bronza medali bilan qaytdi. Ayollar o'tasidagi janglarda O'zbekiston terma jamoasi umumjamoabisobida kuchli beshlikidan joy oldi.

Osiyo championati oldidan mutaxassislar erkaklar o'rtafigi bahslarda g'oliblik uchun asosiy kurash O'zbekiston va Qozog'iston bokschilari o'rtafiga kechishini taxmin qilishgandi. Amalda ham shunday bo'ldi – O'zbekiston hamda Mo'g'uliston terma jamoalarining 10 nafardan vakili championatning medallar uchun kurash boradigan yarim final bosqichigacha muvaffaqiyatlari yetib bordi, qo'shnilarimizning esa 13 nafar bokschisi ushbu vazifani uddaladi. Shuningdek, Yaponiya (7), lordaniya (7), Janubiy Koreya (6) va Hindiston (5) terma jamoalari ham bu borada keyingi bosqichlarda ragobat ko'rsatishini bildirdi.

Yarim final janglari g'oliblik uchun raqobatchilar sonini keskin pasaytirgan bo'lsa, final janglari barcha masalaga oydinlik kiritdi. Eng muhim, To'lqin Qilichev bosh murabbiyligidagi mamlakatimiz erkaklar terma jamoasi 5 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza, jami 10 ta medallarga musharraf bo'lib, umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. Ushbu muvaffaqiyatda eng og'ir vazn (+92 kg) toifasida ringga chiqqan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Lazizbek Mullajonov erishgan yutuq salmog'i va ahamiyati yuqori bo'ldi. Chunki eng so'nggi bo'lib ringga chiqqan MVSM bokschisi hal qiluvchi final jangida qozog'istonlik Kamshibek Konkabayevni mag'lubiyatga uchratib, o'z vazn toifasida Osiyo championligiga erishish bilan birga O'zbekiston erkaklar terma jamoasining umumjamoa hisobida g'olib chiqishini ta'minladi. Zotan, Lazizbekdan oldin MVSMning boshqa bir bokschisi, ya'ni Madiyar Saidraimov o'z vazn (-92 kg) toifasi bo'yicha final jangida aynan qozog'istonlik Aybek Oralbayga imkoniyatni boy berib qo'yib, kumush medal bilan kifoyalanishiga majbur bolgandi. Bunday alamli mag'lubiyat Saidraimov faoliyatida birinchi marta ro'y berayotgani yo'q, u o'tgan yili Rossiyaning Xabarovsk shahrida o'tkazilgan xalqaro turnirda va avvalgi jahon championatida ham aynan so'nggi final jangida omadsizlikka uchrab, kumush medal bilan kifoyalangandi. MVSMning mohir charm qo'lqop ustasi Lazizbek Mullajonov esa, aksincha, ketma-kech muvaffaqiyatlarini davom ettirmoqda.

U o'tgan yili Moskva shahrida o'tkazilgan 58-jahon championati (*SIZM*) va Bolgariya poytaxtida bo'lib o'tgan an'anaviy "Stranjash" xalqaro turnirida, ya'ni mutaxassislarning ta'biri bilan izohlaganda "kichik jahon" championati'da, joriy yil esa Ruminiyaning Tirgu-Muresh shahridagi "Golden Belt" hamda Qozog'istonda ilk bor tashkil etilgan "Yelorda kubogi" xalqaro turnirlarida eng og'ir vazn toifasida barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, oltin medallarga sazovor bo'lqandi.



Qit'aning 30 ga yaqin mamlakatidan kuchli bokschilar qatnashgan janglar yakunida o'zbekistonlik bokschilardan yana 4 nafari g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi. MVSM vakili Lazizbek Mullajonov kabi Hasanboy Do'smatov (-51 kg), Abdumalik Xalakov (57 kg) va Saidjamshid Jafarov (-75 kg) ham final qarama-qarshiligidagi qozog'istonlik bokschilardan ustun kelgan bo'lsa, Ruslan Abdullayev (-63,5) hal qiluvchi jangda hindistonlik Shiva Tapani mag'lub etdi. barakalla!

Final jangida mezbonlar vakili Huseyn lashishga imkoniyatni boy bergen hamyurtimiz Odiljon Aslonov qit'a birinchiligining kumush medali bilan taqdirlangan bo'lsa, yosh bokschilarimizdan Shahzod Muzaffarov, Adhamjon Muhiddinov va Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev bronza medallariqa egalik qilishdi.

**OSIYO CHAMPIONATIDA G'OLIB VA
SOVRINDOR BO'LGAN BOKSCHI
YICITLAR**

Oltin medal sohiblari:

- Orta medall serbiyari:**

 - 51 kg: Hasanboy Do'smatov
 - 57 kg: Abdumalik Xalakov
 - 63,5 kg: Ruslan Abdullayev
 - 75 kg: Saidiamshid Jafarov

+92 kg: Lazizbek Mullajonov

- Kumush medal sohiblari:**
-80 kg: Odiljon Aslonov

Bronza medal sahiblari:

- Bronza medal sənəbları:**
-54 kg: Shahzod Muzaffarov
-60 kg: Adhamjon Muhiddinov
-67 kg: Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev.

Shunday qilib, noyabr oyining birinchi yarmida qit'a, o'z navbatida, jahon boks muxlislari diqqat-e'tiborida turgan Osiyo championati bahslari yakunlandi. lordaniyada charm qo'lqop ustalarimiz muvaffaqiyatlari sharafiga 13 marta Vatanimiz bayrog'i ko'tarilib, 6 marta O'zbekiston madhiyasi vangradi!

Amman shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha Osiyo championati doirasida Xalqaro boks assotsiatsiyasi (IBA) prezidenti Umar Kremljov ishtirokida matbuot anjumani ham o'tkazildi. Ahamiyatlisi, unda kelasi yil mamlakatimiz ilk bor mezbonlik qiladigan boks bo'yicha dunyo birinchiligining sanalari rasman ma'lum qilindi. Ring janglari 2023-yilning 1–14-may kunlari poytaxtimizdagi "Humo Arena" majmuasida o'tkaziladi.

Sog`lom turmush tarzi

ҚАЛҚОНСИМОН БЕЗ КАСАЛЛИГИ

Жаҳон соғиқни сақлаш ташкилоти берган маълумотларга кўра, Ер юзи бўйича 665 миллиондан ортиқ одам эндемик буқоқ ва қалқонсимон безнинг бошқа касалликларидан азият чекмокда. 1,5 миллиард инсонда эса йод танқислиги хасталиклари ривожланиш хавфи мавжуд. Ушбу касалликлар орасида, айниқса, буқоқ кейинги йилларда дунёning аксарият мамлакатларида кенг тарқалди ва долзарб ахамият касб этмоқда. Хўш, ушбу хасталикнинг пайдо бўлишига қандай омиллар сабаб бўлади? Унинг саломатликка хавфи нимада? Куйида шу ҳақда маълумот берамиз.

БУҚОҚ ҚАНДАЙ ХАСТАЛИК?

Инсон бўйинининг олд қисмida шаклан капалакни ёдга солувчи қалқонсимон без жойлашган бўлиб, ушбу тана аъзоси асаб тизими фаолияти, овқат ҳазм қилиш, сувак тўқималари ва моддалар алмашинувида муҳим ўрин тутади. Буқоқ ушбу безнинг катталashiши ҳисобланиб, (нормал ҳолатда қалқонсимон безнинг вазни 20-30 грамм) касаллик асосан йод етишмаслиги сабабли юзага келади. Йод танқислигига эса инсоннинг турмуш тарзи, овқатланиши, стресс, экологик вазият ва яна бир қанча омиллар сабаб бўлиши мумкин. Одатда қалқонсимон без ўзидан З хил гормон ажратади. Бу гармонлар тананинг нормал ўсиши, етилиши, ривожланишини таъминлайди, ошқозон-ичак каби органларнинг бир меъёрда ишлашига кўмак беради. Агар уларнинг қайси бирини синтез қилиш жараённида муаммолар кузатилса, бу ўз-ўзидан инсон танасида жиддий касалликларга йўл очади.

Инсон танасида йод танқислиги кузатилганда, қалқонсимон без ҳужайраларга кам миқдорда йод юборади. Бунинг оқибатида эса гармонлар синтези камаяди ва организм бу жараённи бир маромга келтириш учун бош мия гипофизи орқали таъсир ўтказади. Натижада қалқонсимон без катталашиб, буқоқ касаллигини ривожлантиради.

Сурункали йод этишмаслиги ва қалқонсимон без фаолиятининг бузилиши зеҳннинг сусайиши, депрессия, тери қуриши, соч тўқилиши, қабзият, ич кетиши, бепуштлик, жинсий фаолиятнинг сусайиши, сувак ривожланишининг ўзгариши, паст бўйлик ва остеопороз, гипертония ва атеросклероз каби хасталикларга сабаб бўлади.

КАСАЛЛИК ТУРЛАРИ

Тибиётда буқоқнинг асосан, эндемик ва спорадик турлари мавжуд. Эндемик буқоқ қалқонсимон безнинг жадал катталashiши билан характерланиб, ушбу касаллик кўпинча атроф-муҳитда йод

етишмаслиги сабабли юзага келади. Инсонлар истиқомат қилаётган ҳудудларнинг океан ва денгизлардан узоқда жойлашганлиги ҳам бу касалликка сабаб бўлади. Спорадик буқоқ эса ген ва туғма нуксонлар билан боғлиқ. Эндемик буқоқнинг диффуз, тугунили ва аралаштурлари бор. Буғуниги кунда инсонлар ўртасида диффуз ва тугунили буқоқ кўп учрамоқда.

СИМПТОМЛАРИ

Одатда буқоқнинг ilk босқичларида унинг кичик белгилари сезилмайди. Бироқ кейинчалик бўйиннинг олди қисми бўртиб чиқади. Натижада катталашган қалқонсимон без, асаб ва қон томирларини эзиб кўяди.

Афсуски, кўпчилик инсонлар ўзларида бу касаллик ривожланаётганига жиддий эътибор бермайди. Мутахассислар сиз ахамият бермаётган касаллик белгилари аслида ҳаёт учун хавфли эканлигини таъкидлашади. Улар қуйидаги белгилар саналади:

1. Вазн ўзгариши. Шифокорлар биринчи навбатда дикқатини bemordagi vazn ўзгаришларига қаратишади. Агар танада гармонлар меъёрдан ортиб кетса, одам бирданига озиб кетади. Одатдагидан кўп овқат истеъмол қилинганда ҳам вазн ташлаш давом этади. Бу ҳолатда овқатланиш режимининг ўзгариши ҳеч қандай таъсирга эга эмас. Гормон даражасининг тушиби эса, аксинча, вазн йиғилишига олиб келади. Бунда метаболизм секинлашади ва натижада организм ортиқча калорияни ёф шаклида йиға бошлайди. Шу сабабли, парҳез ва фитнесларга қатнаш ҳам қоматни ушлашга ёрдам бера олмайди. Натижага фақатгина гармонал фондаги ўзгаришларни

меъёрга келтирувчи даволаш курсидан кейин эришиш мумкин.

2. Кайфият бузилиши. Гормонлар бизнинг асаб тизимимизга ўз таъсирини тўғридан-тўғри ўтказгани учун ҳам кайфиятимиз уларнинг даражасига боғлиқ бўлиб қолади. Бунинг аломатларига ҳамма нарсага лоқайдлик, ҳиссий қўзғалувчаник, хамлини кўзғалувчаник, хавотир, йиғлоқилик ёки ўзини тажовузкорона тутиш киради. Инсон ўзидаги бу ўзгаришларни пайқаша осон эмас. Чунки инсонлар кўпинча бу белгиларни ишдан кейинги чарчоқ, ҳар кунги стресс ва ҳаёт қийинчилликларига боғлашади.

3. Бўйин соҳасида ноқулайлик. Агар бўйинда шиш ва унинг ҳажми ортиши, нафас олиш қийинлашиши, ютинишда оғриқ, овозда хириллаши кузатилса, катта эҳтимол билан, қалқонсимон без катталашган ёки ўнда тугунчалар пайдо бўлган. Қалқонсимон безнинг катталashiши ўз-ўзидан буқоқ касаллигининг асосий белгиларидан ҳисобланади. Бироқ бўйиндаги ноқулайлик қалқонсимон без саратонидан ҳам белги бериши мумкин. Шунинг учун, агар бўйиндаги нохуш ҳолат сезсангиз, зудлик билан шифокор қабулига боринг.

4. Сочлар ва тирноқ мўртлиги. Соч ва тирноқлар гармонал ўзгаришларга жуда сезувчандир. Касаллик пайдо бўлганда улар юпқалашади ва кучсизланади, осон синиши ва тўқилиши кузатилади. Бу нафақат соchlarga, балки қош ва киприкларга ҳам алоқадор. Кучли соч тўқилиши калликка ҳам олиб келиши мумкин. Агар вақтида даволаниб, гармонлар даражаси ўз ўрнига қайтса, соч қатлами яна аввалги ҳолатини тиклайди.

5. Тана ҳароратидаги ўзгаришлар. Гармонал камчиликлар

тананинг ўз ҳароратини меъёрда ушлаш имкониятига ҳам ўз таъсирини кўрсатади. Беморларнинг таъкидлашича, кўпчилик бир хонада бўлиб турганда ва бошқалар иссиқликини хис қилишганда, улар совқотишади. Баъзиларда аксинча, қаттиқ жазира маънада азият чекишиади. Қалқонсимон без қанча кўп гормон ишлаб чиқарса, тана ҳарорати ҳам шунча ошиб бора-веради.


6. Тери қуруқлашиши. Қуруқлашиши ва таъсирчанлик турли хил касалликлардан далолат бериши мумкин — псориаз, ихтиоз, замбуруғлар, аллергия, жигар етишмовчилиги ва рухий узилишлар. Лекин агар сизда қалқонсимон без касалликларининг бошқа аломатлари ҳам мавжуд бўлса, тери қуруқлашиши арзирли белги бўла олади. Бунда айниқса, тирсак ва тизза соҳасида пўст ташлаш кузатилади ҳамда тери ташки ҳаракатга таъсирчан бўлиб қолади. Тошмалар, қишиши ва яллиғланиш кузатилади.

7. Ҳазм тизимида муаммолар. Қалқонсимон без гармонлари овқат ҳазм қилиш тизимини ҳам меъёрлаштиради, моддалар алмашинуви ва ошқозон-ичак фаолиятини назорат қилади. Носозликлар мушаклар заифлашиши, йўғон ичак тортилишига олиб келиши мумкин. Бунинг ортидан қабзият, диарея ва оғриқ юзага келади.

8. Юрак ритмида ўзгаришлар. Юрак уришида тезлик ёки сеқинлашув эндокрин тизимидаги касалликларнинг аломати бўлиши ҳам мумкин. Қон босими бирданига кўтарилади ёки тушади. Ҳатто оддий жисмоний зўриқиши нафас қисилиши ва пульс тезлашувига олиб келиши мумкин. Шифокор назоратисиз бу симптом тахикардия ёки юрак етишмовчилиги касалликларини қўзғаши мумкин.

Сизда юқорида келтирилган бирор-бир белги кузатилса, эндокринолог қабулига боришни маслаҳат берамиз.

**Г. ҲОЖИМУРОДОВА
тайёрлари.**



у ҳаёт учун қанчалик хавфли?

Мировые бренды


**Raytheon
Technologies**

Военно-промышленная корпорация «Рейтейон текнолоджиз»



Одна из ведущих мировых производителей современных вооружений и военной техники (ВВТ) всемирно известная корпорация «Рейтейон» (с апреля 2020 года «Рейтейон текнолоджиз») традиционно специализируется на разработке и выпуске ракетного оружия различных классов и радиоэлектронного оборудования военного назначения. По некоторым оценкам, «Рейтейон» является крупнейшим производителем управляемых ракет (УР) в мире. Кроме того, корпорация имеет сильные позиции в разработке и производстве радиолокационных станций (РЛС), автоматизированных систем боевого управления, средств связи, разведки и радиоэлектронной борьбы, вычислительной техники, а также блоков наведения для артиллерийских снарядов и авиационных бомб. Корпорация активно занимается освоением новых сфер деятельности. В частности, в последние годы одним из важнейших направлений деятельности компании стало предоставление услуг в сфере обеспечения кибербезопасности. В 2016–2017 годах она приобрела несколько компаний, занимающих лидирующие позиции на рынке услуг, связанных с обеспечением информационной безопасности и противодействия киберугрозам.

В настоящее время проходят самые крупномасштабные за всю историю корпорации мероприятия по изменению ее организационной структуры. В частности, в апреле 2020 года завершилось объединение двух мощных многопрофильных разработчиков и производителей военной техники – «Рейтейон» и «Юнайтед текнолоджиз», ставшее одной из крупнейших сделок за всю историю американского ВПК (оценочно 120 млрд долларов). Штаб-квартира новой корпорации, получившей название «Рейтейон текнолоджиз», расположилась в главном офисе «Рейтейон» в г. Уолтем (штат Массачусетс).

В состав корпорации, организационно состоявшей до этого из пяти подразделений («Миссайл системз», «Интегрейтед дефенс системз», «Спейс энд эрборн системз», «Интеллиджанс, информейшн энд сёрвисез» и «Форспойнт»), сформированных по направлениям их основной деятельности, были включены из состава «Юнайтед текнолоджиз» такие компании, как «Пратт энд Уитни» (крупнейший мировой производитель двигателей для гражданской и военной авиации и газотурбинных установок) и «Коллинз аэроспейс системз» (авионика).

Корпорация владеет или арендует помещения общей производственной площадью более 2,4 млн м². Основная производственная, научно-исследовательская и опытно-конструкторская деятельность корпорации сосредоточена на 70 крупных объектах как на территории США, так и за ее пределами.

Одним из ведущих в структуре корпорации является подразделение «Миссайл системз», которое занимается разработкой, производством, модернизацией, обслуживанием и ремонтом ракетного оружия и других средств поражения, в том числе высокоточных боеприпасов, а также беспилотных летательных аппаратов. На его сборочных предприятиях изготавливаются оперативно-тактические ракеты и крылатые ракеты морского базирования (н-р, «Томахок» RGM/UGM-109E), зенитные управляемые ракеты различного типа (MIM-104, RIM-7 «Си Спарроу», RIM-116 «РАМ» и т.д.), авиационные ракеты классов «воздух-воздух» (AIM-120 «Амраам», AIM-7 «Спарроу», AIM-9X «Сайдвиндер») и «воздух-поверхность» (AGM-65 «Майверик»), противорадиолокационные и противотанковые управляемые ракеты, управляемые боеголовки для ракет GBI, управляемые авиабомбы различного типа, зенитно-артиллерийские комплексы и т.д. Ускоренными темпами ведутся ра-

боты по созданию баллистических ракет, получивших название «ДипСтрайк».

Подразделение «Интегрейтед дефенс системз» является признанным лидером в области интеграции зенитных ракетных комплексов и комплексов ПРО, а также разработки, производства, модернизации и обслуживания крупных радиолокационных станций (РЛС), систем управления, связи, вычислительной техники и разведки, электронных систем для надводных кораблей и подводных лодок. На предприятиях подразделения развертывается производство многофункциональных корабельных РЛС, а также РЛС для зенитно-ракетных комплексов «Патриот», ведутся работы по созданию очередной версии трехкоординатной мобильной РЛС дальнего радиуса действия 3DELRR. Входящее в состав «Интегрейтед дефенс системз» предприятие по выпуску интегральных микросхем имеет уникальные наработки в области создания арсенид-галлиевых (GaAs) и нитрид-галлиевых (GaN) полупроводниковых материалов.

Подразделение «Спейс энд эрборн системз» занимается разработкой и производством бортового оборудования авиационной техники и искусственных спутников земли (ИСЗ), а также другой радиоэлектронной и электронно-оптической аппаратуры (в том числе систем связи, разведки, радиоэлектронной борьбы) и лазеров. На предприятиях подразделения проводится окончательная сборка контейнерной системы радиоэлектронного противодействия нового поколения AN/ALQ-249 для палубных самолетов РЭБ EA-18G «Гроулер», многофункциональных станций с активной фазированной антенной решеткой, в том числе AN/APG-79, которые устанавливаются на палубные истребители-бомбардировщики F/A-18E/F «Супер Хорнет» и самолеты РЭБ EA-18G «Гроулер». В августе 2019

года подразделение получило контракт стоимостью 24 млн долларов на проведение за пределами США испытаний двух образцов подвижного лазерного боевого комплекса HELWS, предназначенного для борьбы с легкими беспилотными летательными аппаратами (БПЛА).

Подразделение «Интеллиджанс, информейшн энд сёрвисез» специализируется на разработке и производстве систем наблюдения и разведки, сбора, обработки и хранения информации, наземных станций управления космическими аппаратами и БПЛА, систем управления воздушным движением и метеообеспечения, а также автоматизированных технических средств контроля обстановки в районах государственной границы. Оно же занимается вопросами обеспечения кибербезопасности военной техники и подготовкой специалистов различного профиля.

Образованное в 2015 году подразделение «Форспойнт» – самое молодое и небольшое в структуре корпорации «Рейтейон текнолоджиз». Занимается вопросами противодействия киберугрозам в области обороны и безопасности для гражданских, правительственные и частных потребителей. Подразделение предлагает высокотехнологичные инженерные и консультационные услуги по вопросам предотвращения утечек информации, защите облачных данных, сетевой безопасности, сетевого экранирования и т.д.

В заключении можно отметить, что корпорация «Рейтейон текнолоджиз» является одним из лидеров высокотехнологичного сектора американского ВПК, обладает развитой производственной и научно-исследовательской базой, способной обеспечивать разработку и серийный выпуск высококачественных вооружений и военной техники, в первую очередь управляемого ракетного оружия и радиоэлектронных систем.

Ochiq muloqot

MUHIM SAYYOR QABULLAR

Termiz harbiy prokuraturasi tomonidan Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari va ularning oila a'zolari ishtirokida sayyor qabul o'tkazildi. Tadborda Termiz harbiy prokurori, Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i, xalq ta'limi, sog'lqni saqlash, Davlat xizmatlari markazi, viloyat ayollarni reabilitatsiya qilish markazi va boshqa jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Sayyor qabulda so'zga chiqqanlar tomonidan hozirgi kunda viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari oilalariga moddiy va turar joy muammolarini yechishda ko'maklashish, sog'lom oila turmush tarzini targ'ib qilish, oila a'zolari o'rtafigi muammolarni aniqlash, ularni bevosita joyida bartaraf etish bo'yicha ma'ruza qilindi.

Suhbatlar asnosida turli xil mazmundagi jami 45 dan ortiq murojaat tinglangan bo'lsa, shundan 31 tasiga huquqiy tushuntirishlar berildi, 14 ta murojaat nazoratga olingan holda tegishli mutasaddi idoralarga yo'naltirildi. Tadborda 100 nafardan ortiq harbiy xizmatchi oila a'zolari bilan qatnashdi.

Surxondaryo viloyati "Sog'lom avlod uchun" xalqaro hayriya fondi tibbiyot guruhi jamoasi tomonidan zamonaviy tibbiy tashxis apparatlaridan foydalanib, sayyor tibbiy-ko'rik tashkil etildi. Unda malakali shifokorlar harbiy xizmatchilarining oila a'zolarini tibbiy-ko'rikdan o'tkazib, ularga aniqlangan kasallik bo'yicha davolanishga oid tavisiyalar berdi. Shuningdek, tibbiy-ko'rik davomida sog'lom turmush tarzi, jismoniy faoliy va tibbiy savodxonlikni oshirish bo'yicha suhabatlar o'tkazildi.

Adliya podpolkovnigi Dilmurod HAMROEV,
Termiz harbiy prokurori

Yong'in xavfsizligi

HAYOTIY MISOLLAR

VOSITASIDA

Sharqiy harbiy okrug hududidagi harbiy qism va muassasalarda Farg'ona garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi tomonidan Favqulodda vaziyatlar bo'limlari hamda "Hududgaz" ta'minoti mutaxassislari ishtirokida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.



Kuz-qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlar va favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida o'tkazilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari davomida havo harorati pasayishi natijasida is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning ro'y berish sabablari haqida ko'proq ma'lumot berishga e'tibor qaratilmoqda. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda tabibiy hamda suyultirilgan gazdan foydalanishda xavfsizlik qoidalari va talablariga rioya etmaslik, e'tiborsizlik oqibatlida gazdan zaharlanishdek fojiali oqibatlarga olib kelishi ta'kidlandi. Shuningdek, gaz isitish asboblaridan noto'g'ri foydalanishning ayanchli oqibatlari hayotiy misollar bilan mustahkamlandi.

Harbiy qism va muassasalar shaxsiy tarkibiga yong'in xavfsizligi bo'yicha qoidalari hamda yo'riqnomalar, yong'inning salbiy oqibatlari, inson hayotiga xavfi ko'rgazmali tarzda tushuntirilib, o'quv mashg'ulotlari shaklida yetkazildi.

Yuqorida ko'satilgan yong'in profilaktika ishlarining o'z vaqtida, yuksak saviyada o'tkazilishi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar hamda turli ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mayor Baxtiyor ERGASHYEV,
Farg'ona garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi boshlig'i

HUQUQIY HIMOYALASH MAQSADIDA

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash va har jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida Nukus harbiy prokuraturasi tomonidan Nukus tumanida joylashgan harbiy shaharchada Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan hamkorlikda sayyor qabul o'tkazildi.

Tadborda harbiy shaharchada istiqomat qilayotgan 100 nafardan ortiq harbiy xizmatchi va ularning oila a'zolari ishtirok etishdi. Qabulda 29 ta murojaat o'rganildi, shundan 5 tasi joyida hal qilindi. 10 ta murojaat nazoratga olingan holda tegishli tashkilotlarga yo'naltirildi hamda 14 ta murojaatchiga huquqiy tushuntirishlar berildi.

Sayyor qabul doirasida "Mehnat yarmarkasi" o'tkazilib, ish bilan ta'minlanmagan va ishlash istagi mayjud harbiy xizmatchilarining oila a'zolarini ishga joylashtirish choralar ko'rildi.

Bundan tashqari, Nukus harbiy hospitali hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi tegishli mutaxassislari ishtirokida harbiy shaharchada istiqomat qiluvchi harbiy xizmatchilarining oila a'zolari uchun bepul chuqurlashtirilgan tibbiy-ko'rik tashkil etilib, malakali shifokorlar tomonidan amaliy yordam ko'rsatildi.

Adliya polkovnigi Shuhrat ZOIROV,
Nukus harbiy prokurori

Biz korrupsiyaga qarshimiz

JINOYATGA JAZO MUQARRAR

Bugun mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. So'nggi yillarda bu yo'nalishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, korruptsianing oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar, o'tkazilayotgan targ'ibot-tashviqot tadbirlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Mafkuraviy immunitetni shakkantirishga qaratilgan bu kabi tadbirlar Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ham o'tkazilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi, Nukus va Urganch harbiy prokuraturalari hamda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida joylashgan

harbiy qism hamda muassasalarda ham bir qator targ'ibot-tashviqot tadbirlari uyushtirildi.

Uchrashuvlarda ishtirok etgan soha xodimlari bugun mamlakatimizda korruptsianing oldini olish va unga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar haqida tushuncha berishdi, korrupsiya domiga tushib qolishning qanday mudhish oqibatlarga olib kelishini hayotiy misollar orqali tushuntirishdi. Shu orqali jinoyatga, albatta, qonunchilikda belgilangan jazo muqarrar ekanligini ta'kidlab, ishtirokchilarni ogohlilik va hushyorlikka chaqirdi.

Tadbirlar doirasida mavzu yuzasidan videolavhalar namoyish etildi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Ijtimoiy himoya

G'AMXO'RLIKNING YANA

BIR NAMUNASI

Harbiy xizmatni Vatan va xalq oldidagi muqaddas burchi deb biladigan, butun hayotini yurt himoyasiga bag'ishlagan insonlarning xizmatini qadrash, xususan ularning oila a'zolarini ijtimoiy muhofaza qilish borasida keyingi yillarda bir qator tadbirlar o'tkazilmoqda. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari salomatligini saqlash maqsadida doimiy ravishda o'tkazilib kelinayotgan chuqurlashtirilgan tibbiy-ko'riklar shular jumlasidandir.

Yaqinda Sharqiy harbiy okrugda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Farg'ona filiali bilan hamkorlikda navbatdagi tibbiy-ko'rik o'tkazildi. Harbiy xizmatchilarining oila a'zolari sog'lig'i mustahkamlash, xotin-qizlarga xos bo'lgan kasalliklarni erta aniqlash va oldini olish maqsadida onkoginekolog hamda rentgenolog nazorati tekshiruvlari jarayonida ayollarga zarur tibbiy maslahatlar berildi.

– Harbiylarning rafiqasi bo'lish ikki karra mashaqqatli. Ular ro'zg'or tashvishi, farzand tarbiyasini o'zining nozik yelkasiga olib, turmush

o'rtoqlarining Vatan himoyasi yo'lidiagi xizmatlariiga kamarbasta bo'ladi. Shu orqali Vatan tinchligi va barqarorligiga, taraqqiyotiga o'z ulushlarini qo'shadi. Shuning uchun ham biz ularni ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, oila totuvligi va barqarorligini yanada mustahkamlash maqsadida bir qator tadbirlari o'tkazyapmiz. Bugungi tibbiy-ko'rik ham ularga ko'satilayotgan g'amxo'rlikning yana bir namunasi bo'ldi, – deydi harbiy qism xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarining ojalari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassis Dilorom Mamatova.

Muattar MELIYEVA,
"Vatanparvar"

Sog'lom turmush

OMMAVIY YUGURISH

musobaqasi

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun arafasida Toshkent shahridagi "Humo Arena" majmuasi hududida "Yangi nafas" ommaviy yugurish musobaqasi bo'lib o'tdi.



Ushbu sport musobaqasi Sportni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Toshkent shahri hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, "O'zbekneftgaz" AJ, O'zbekiston triatlon federatsiyasi hamda yugurish havaskorlari klublari ko'magida Yengil atletika federatsiyasi tomonidan tashkil etildi.

Mazkur bellashuv respublikamiz bo'yicha 15 ta shaharda "Bir Vatanda, bir vaqtsha, bir masofaga, bir maqsadda – birga yuguramiz!" shiori ostida o'tkazildi. Jumladan, Toshkent shahridagi musobaqalar "Yangi O'zbekiston", "Ashxobod" sayilgohi va "Humo Arena" maimuasida tashkil etildi.

Tadbirning tantanali ochilish marosimida Sportni rivojlantirish vaziri Adham Ikromov, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vaziri Abduqodir Toshqulov, mudofaa vazirining birinchi o'rinchbosari general-major Shuxrat Xolmuhamedov butun respublikamiz

bo'ylab Davlat bayrog'i qabul qilingan kunga bag'ishlab o'tkazilgan sport-vatanparvarlik musobaqasining g'ahamiyati, har bir sportchi uchun g'alabalar va yutuqlarining timsoli, g'urur va shon-sharaf, milliy birdamlik ramzi ekanini ta'kidlab o'tdi.

Qayd etish lozim, mazkur ommaviy yugurish musobaqasida butun respublika bo'ylab 40 mingga yaqin ishtirokchini qatnashdi. Adliya vazirligining ko'magida "Yangi nafas" ommaviy yugurish musobaqasiga nogironligi bo'lgan yuguruvchilar jalb etildi. Tashkilotchilarni tomonidan "G'alabaga iroda uchun" maxsus nominatsiyasi ta'sis etildi. Bundan tashqari, eng yosh va eng keksa ishtirokchilar nomi ham alohida e'tirof etildi.

Musobaqa g'olib va sovrindorlari tashkilotchilar tomonidan medal hamda qimmatbaho sovg'alar bilan tantanali tarzda taqdirlandi. Tadbir so'ngida Qurolli Kuchlar markaziy ashula va raqs ansamblini hamda taniqli xonandalar ijrosida konsert dasturi barchaga bavramona kavfivat bag'ishladi.

**Leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,
«Vatanparvar»**

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Toshkent viloyati kengashi tasarrufidagi Yangiyo‘l shahri o‘quv sport-texnika klubni jamoasi tomonidan harbiy-vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.



IMKONIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANILMOQDA

Ayniqsa, bu ishlar ko'lamiga "Vatanparvar" tashkiloti tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan yanada muhim ahamiyat kash etmoqda. Xususan, shahar mudofaa ishlari, xalq ta'limi bo'limlari, harbiy qismlar, Yoshlar ishlari agentligi hamda ma'naviyat va targ'ibot markazlarining shahar bo'limlari bilan hamkorlikda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda. Yaqinda tashkil etilgan ochiq eshiklar kuni ham ana shu muhim sanaga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirlar sirasidan. Unda hamkor tashkilotlar vakillari bilan bir qatorda shahardagi 6-umumta'lim

— Tadbir avvalida tashkilot
tarixida qurilishni boshladi.

vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb qilish hamda kasbga tayyorlash to‘g‘risida batafsil ma‘lumot berildi, – deydi O‘STK boshlig‘i Nazirjon Saidov. – Shuningdek, “Vatanparvar” tashkilotining faoliyati, uning yo‘nalishlari, yurtimiz ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritildi. Tadbirda o‘quvchi-yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan barcha savollariga batafsil javob oldi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, tashkilotda haydovchilarni tayyorlash ishlari ham bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda sifatli tashkil etilgan. Buning uchun o'quv-mashg'ulot yengilari koraldi va zo'rur iboralar bilan

“Vatanparvar” tashkiloti Yangiyo'l shahri o'quv sport-texnika klubini jamoasi soha xodimlarini 23-noyabr – “Vatanparvar” tashkiloti kuni bilan samimiyu fabriklaudi.

Muhtaram hamkaslar! Sizlarga sihat-salomatlik, farovonlik hamda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashdek sharafli kasbingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

ta'minlangan. Ayni paytda bu yerda "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Shuningdek, o'z oldiga "C" va "E" toifalarini egallashni maqsad qilganlar uchun qayta tayyorlash kurslari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Buning uchun o'quv sport- texnika klubida bo'lajak haydovchilarga moshg'ulotlarni bilmli va taqibali o'qituvchi hamda amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar olib bormoqda. Muhimi, yoshlар orasida kelgusida malakali haydovchilar yetishib chiqishi uchun barcha imkoniyatlar ishga solingan. Bu esa o'z navbatida mavjud sharoitlardan to'g'i va oqilonaga ravishda faudelanileyatga qilingan dolilidir.

BOLAJON

BEPARVOLIK KASRI

Kuz faslida yomg'irli kunlar ko'p bo'ladi. Mana bugun ham yomg'ir yog'moqda. Shahnoza derazadan yomg'ir yog'ishini tomosha qilyapti. "Ehh, yomg'ir tezroq tugay qolsaydi, dugonalarim bilan maza qilib o'ynardik", deb xo'rsindi u.

Mana va nihoyat yomg'ir tindi. Bulutlar ortidan quyosh ko'rindi. Shahnoza yugurib onasining yoniga bordi.

— Oyijon, yomg'ir to'xtadi. Endi ko'chaga chiqib o'ynasam, maylimi?

— Mayli, faqat qalinroq kiyinib ol, — oshxonada ovqat qilayotgan onasi taynladi Shahnozaga.

— Ukangni ham olib chiq. Halitdan buyon xarxasha qilib, ovqat tayyorlashimga xalaqit beryapti.

— Oyijon, Javohirni olib chiqsam, dugonalarim bilan o'ynatgani qo'ymaydi. Ko'tar deb injqliq qiladi.

— Qizim, ko'rmayapsanmi, u ham uya zerikdi. Olib chiqmasang bo'lmaydi.

— Mayli-i, — ukasini istamaygina yetakladi Shahnoza.

— Shoshma, uni ham qalinroq kiyintirib ol. Quyosh ko'ringani bilan tashqari ayoz, shamollab qolmasin.

— Ho'o'p, — ukasini erinib kiyintirishga tushdi.

— Uff, oyi, paypog'i qayerda edi, topolmayapman!

— Kiyim shkafida turibdi, yaxshilab qara. To'qqiz yosh bo'lyapsan, qizim, bunday ishlarni bemalol uddalashing kerak.

Shahnoza shkafni qancha titkilamasin, ukasining paypog'ini topa olmadi. "Ee, paypog'i yo'q-ku, oyimdan yana so'rasam, urishib berishi aniq," — xayoldan o'tkazdi u. — Tuflisini paypoqsiz kiysa ham bo'laveradi".



Shahnoza ukasini yetaklab ko'chaga shoshildi. Dugonalarini ko'rib, sevinib ketdi. Ular bilan quvlashmachoq o'ynashga tushdi. Uch yoshga to'Imagan ukasini o'z holiga tashlab qo'ydi. Javohir yig'ilib qolgan yomg'ir suvlarini o'ynay boshladи. Tuflichasi suvgaga to'ldi, yuzlari loy bo'ldi. Dugonalari bilan obdan o'ynab charchagan Shahnoza shundagina kiyimlari nam, yuzi loy ukasiga ko'zi tushdi. Darhol uni uylariga olib kirdi. Onasiga bildirmaslik uchun qo'l-betlarini yuvib, kiyimlарини almashtirdi.


Ko'p fursat o'tmay, ukasining burni oqa boshladи. Tinmay yig'lashga tushdi. Kechga borib tana harorati ko'tarilib ketdi. Ota-onasi "Tez yordam" chaqirishga majbur bo'ldi. Shifokorlar uni tekshirib, shamollaganini aytishdi va isitmasini tushirish uchun ukol qildi. Javohir shunday chinqiradiki,

Shahnoza sapchib tushdi. Igna xuddi uning tanasiga kirgandek bo'ldi. Uning bee'tiborligi sabab, ukasi kasal bo'lganidan o'zini yomon ko'rib ketdi, vijdoni qynaldi. Bunday xatoni boshqa takrorlamaslikka o'ziga so'z berdi.

Diyora FAXRUTDINOVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
241-umumta'l'm
maktabining 7-sinf o'quvchisi.
5-sinf o'quvchisi Charosxon
YUSUFJONOVAning chizgan surati




7 TA FARQNI TOPING!



QOPQONDAN CHIQIB
KETISHIGA YORDAM
BERING

Mashhurlar hayotidan




Faylasufning mudhish “xatosi”

Bu sud jahon tarixidagi o'ta adolatsiz mahkamalardan biri sifatida hali-hanuz bashariyat ahlining esidan chiqqani yo'q. Chunki unda yetmish yoshli faylasufga nohaq o'lim jazosini ravo ko'rdilar va bu nohaqlik mangulik sahfalariga insoniyatning eng mudhish xatolaridan biri sifatida muhrlandi. Mazkur qattollik qurboni esa keyinchalik nomi jamiki avlodlar va xalqlar uchun donishmandlik ramziga aylangan daho Suqrot edi!

Suqrot miloddan avvalgi 469–399-yillarda afinalik haykaltarosh Sofriniks va doya Fenareta oilasida tug'ilgan. Ayrim manbalarda yozilishicha, u faqirona hayot kechirgan. Qachon qaramang, eski libos kiyib, oyoq yalang yurgan. Ko'p vaqtini ko'cha-ko'yda, maydon-xiyobonlarda odamlar bilan gurunglashib o'tkazgan. Har qanday kishini ham chuqur o'ylantirib qo'yadigan jumboqli savollari bilan suhabatdoshlarini hayratga solgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, olibsotarlik orqali kun kechirib, uchta harbiy yurishda qatnashgan.

Eng ajablanarlisi, Suqrot umrida biron narsa yozmagan, barcha fikr-g'oyalalarini og'zaki bayon etgan. Uning falsafiy ta'llimotiga oid ma'lumotlarni zamondoshlari va shogirdlaridan Ksenofont, Aflatun, keyinroq Arastu qog'ozga tushirgan.

Bukup faylasuf ko'p vaqtini bahsmunozaralar bilan o'tkazar va hamisha g'olib chiqardi. Mag'lub bo'lganlar esa alamiga chidolmay, uni haqoratlashar, mazaxlashar va kaltaklashardi. Do'stlari nega ularga qarshi chora ko'rmasligini so'rashsa, Suqrot "Meni eshaklar teypatti, ularni sudga berolmayman-ku!", deydi. Afsuski, mana shu so'zlar va yana bilimdonligi unga juda qimmatga tushadi. Bu faylasufning eng katta xatosi edi. Shusiz ham uning ta'llimotidagi tanqidiy ruh o'zlarini oqil-u dono hisoblovchilarga yoqmas edi. Ayniqsa, Suqrotning qarashlari Afina hukmon doiralarini qattiq xavotirga solardi. Masala jiddiyashgach, xalq orasida mavqeyi tobora oshib borayotgan, odamlar ko'zini ochayotgan faylasufga



hukumatning o'zi qarshi chiqadi. Uni demokratiyaga dushmanlikda, yoshlarni yo'ldan urishda, fuqarolik me'yorlarini buzishda hamda shahar ahli azaldan sig'inib kelgan xudolarni mensimay, yangi ma'budalar yaratishda ayblab, sudga beradi.

Sudda ajabtovur usul qo'llanadi. Kosiblar nomidan Anit, notiqlar nomidan Likon, shoirlar nomidan Melet da'vogar sifatida so'zga chiqib, hamkasblarini uzluksiz masxaralab kelgani uchun aybdorga nisbatan oliy jazo tayinlashni so'rashadi. Suqrot esa o'zini himoya qilish o'rniqa g'animirin va hakamlarni battar g'azablantiruvchi gaplarni aytadi. "Tag'in meni o'limga mahkum etib, Xudo o'zlarigizga bergen ehsondan ayrilib qolmanglar", deya ularning

jig'iga tegadi. Qarabsizki, mahkamada qatnashgan 501 nafr sudyadan 281 naftari uni aybdor deb topish yuzasidan ovoz beradi.

H a k a m l a r j a z o n i belgilashayotganida Suqrot yana sarkashlik yo'lini tutadi. Sudda agar aybi isbotlansa, arzimagan miqdorda jarima puli – 25 dragma to'lashga rozi ekanligini bildiradi. So'ngra "Aslida bu ishlarim uchun meni jazolashlarling emas, Davlat kengashida tekin tushlik berishlarling kerak... Chamamda, Tangri kaminani uzzukun shahar kezib, sizlarni uyg'otish uchun yuborgan. Menga o'xshaganlarni osonlikcha topolmaysizlar. Gapimga ishonsangiz, hayotimni saqlab qolarsiz, aksincha bo'lsa, so'na chaqib, jahli qo'zigan odamlar kabi uring o'dirarsiz. U holda Xudo to mening o'rningma boshqa birovni yo'llaguncha umringiz g'afflatda o'tadi", deydi.

Tabiiyki, bu qochirimli gaplar qasoskorlar qahrini junbishiha keltiradi. Keyingi safar qarshi ovoz berganlar soni 361 nafarga yetadi.

– Nachora! – deydi faylasuf sud nihoyasida so'nggi so'zini aytarkan, istehzoli ohangda. – Endi men o'limga yuz tutaman, sizlar yashamoq uchun tarqalasizlar. Lekin qay birimiz yaxshilik sari yo'li olishimiz yolg'izgina Yaratganga ayon!..

Inchunin, haklar keksa faylasufni o'limga loyiq ko'rishadi. Sud tugagach, do'stlari unga humk ijo etilgunga qadar qamoqdan qochishni taklif qilishadi. Ammo Suqrot ko'nmaydi. "Men, – deydi sababini tushuntirib, – umrim bo'y qonunlarni, davlatni, Vatanni hurmat qilib, shu darajaga yetishdim. Baski, nega endi ajalga ro'baro' bo'lgach, ularni tashlab qochishim kerak?!" Agar qonun va davlat yomon bo'lib, meni qoniqtirmaganida, oldinroq ketishim yoki ularni o'zgartirish uchun kurashishim lozim edi. Men esa bunday qilmaganman. Demak, endi qonun va davlatga so'zsiz itoat etishim kerak!"

U lafziga sodiq qoldi. Biroq jallod tomonidan qatl etilmadi, balki hibxonada o'z ixtiyori ila bir kosa og'u ichib, dorilbaqoga rihlat qildi. Antik davrda o'z jamiyatiga sig'magan faylasufning hayoti mana shu zayl aychili yakun topdi.

Afina ulusi keyinchalik xatosini anglab yetdi. Pirovardida sud hukmi asossiz ekanligi isbotlanib, tuhmatchilar jazolandı. Chunonchi Melit o'Idirildi, Anit va Likon shahardan quvildi. Sugrotga esa bronza haykali o'rnatildi.

G. MURODOVA tayyorladi.



Mashhurlar hayotidan

Velosiped haydovchisi yo'lda buyuk dramaturg va yozuvchi Bernard Shou bilan to'qnashib ketdi. Qo'rqib ketgan haydovchi astoydil uzr so'rashga tushadi. Shou esa unga e'tiroz bildirib shunday deydi:

– Omadingiz kelmadi-da, janob. Yana jinday kuch sarflaganingizda, mening qotilim sifatida tarixda qolardingiz.



Oksford universitetining o'qituvchisi Kerroll ish orasida "Alisa mo'jizalar mamlakatida" nomli ertak yozadi. Angliya qirolichasi bir kun ana shu ertakni o'qib, nihoyatda ta'sirlanadi va yozuvchining boshqa asarlarini ham zudlik bilan sotib olishni buyuradi. Lekin Kerrollning barcha kitoblari oliy matematika bo'yicha ekanligini eshitgan qirolicha hayratdan lol bo'lib qoladi.



Bir odam Pushkinni mot qilish niyatida undan so'radi:

– Men bilan quyosh o'rtasida qanday o'xshashlik bor?

Shoir o'ylab-netib o'tirmay shunday javob qildi:

– Sizning basharangizga ham, quyoshga ham peshonani tirishtirmsandan qarab bo'lmaydi.

TA'ZIYANOMA

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rahbariyati, Bosma ommaviy axborot vositalari va noshirlik fakulteti, Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti jamoasi O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Harbiy va sport jurnalistikasi kafedra mudiri, Mudofaa vazirligi faxriysi, rezervdag'i polkovnik, falsafa fanlari doktori Safarov Aljon Itolmasovichga otasi

Itolmas SAFAROV Kurbanovichning

vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI